

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti**

**MAVZU: QASHQADARYO VOHASI ZIYORATGOHLARINING
RESPUBLIKA TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI MAVZUSIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

A.H. Abdullayev

Bajardi:

D.S. Abdullayeva

“Tarix” (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha)
ta’lim yo‘nalishi kunduzgi bo‘lim 4 kurs talabasi

Toshkent – 2024

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I. BOB. QASHQADARYO VOHASI ZIYORATGOHLARNING RESPUBLIKA TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDAGI HUQUQIY ASOSLARI.....	9
1.1. Mavzuning o‘rganilish darajasi	9
1.2. Vohadagi ziyoratgohlarni saqlash va ulardan turizm sohasida foydalanishga oid normativ hujjatlar tahlili.....	16
II. BOB. QASHQADARYO VILOYATIDA TARIXIY AHAMIYATGA EGA ZIYORATGOHLAR KOMPLEKS TAHLILI.....	23
2.1. Voha hududidagi ziyorat qilinadigan joylarning tasnifi.....	23
2.2. Ziyorat turizmi Qashqadaryo viloyatida turizmning istiqbolli yo‘nalishi sifatida.....	29
III. BOB. QASHQADARYODA TURIZM RIVOJIDA MUHIM QADAM.....	35
3.1 Turizmni rivojlantirishda ziyoratgohlarni ommalashtirishda YUNESCO bilan hamkorlik.....	35
3.2 Qashqadaryo viloyatida o‘tkazilayotgan xalqaro tadbirlarning o‘rni va ziyoratgohlarda turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati.....	42
Xulosa.....	50
Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati.....	53
Ilovalar.....	57

KIRISH

Bitiruv malakaviy mavzusining asoslanishi va dolzarbligi. O‘zbekiston o‘z davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach, Respublika hududida joylashgan barcha tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar topish va ularning qurilish, tarixini o‘rganish, qayta rekonstruksiya ishlarini olib borish va bundan tashqari ushbu maskanlarni aholining madaniy, ijtimoiy hayotida tutgan o‘rnini o‘rganishga jiddiy e‘tibor qaratildi. Jahonda ko‘plab xalqlar davlatlar, xususan, Vatanimiz siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti tarixiga bag‘ishlangan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda butun Respublika bo‘ylab joylashgan tarixiy ziyoratgohlar, ayniqsa Qashqadaryo vohasidagi shu turdagi manzilgohlarni topib o‘rganish kesimida xolis yondashishdagi muommolar o‘z yechimini kutmoqda.

Istiqlol yillarida bir guruh tarixchi olimlar tomonidan Respublika hududidagi ziyoratgohlar tarixini har bir davrini xolislik bilan va tarixiy izchillik asosida yoritish asosiy vazifalardan biri etib belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi turizm taraqqiyotining zamonaviy bosqichida turizmni yanada rivojlantirish va xorijiy sayyohlar oqimini kengaytirishga doir mavjud muommolarni tizimli hal etishga ehtiyoj borligini ko‘rsatdi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatimiz yoshlari o‘rtasida boy tarixni, uning betakror madaniyati va milliy qadryatlarini keng targ‘ib etish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish, insonlarning o‘z davlati hududida joylashgan muborakbod maskanlarni asrab-avaylash va millatiga bo‘lgan muhabbati haqiqiy qadriyat sifatida mustahkamlanishi kabi muhim vazifalarni kuchaytirishni taqazo etadi. Yuqoridan kelib chiqqan holda XIV asrning ikkinchi yarmi va mustaqillik yillarida Qashqadaryo vohasi hududida joylashgan tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar, mozor va qabristonlar holatini tarixiy nuqtai nazaridan tahlil qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Dunyo miqiyosida diniy qadriyatlar jamiyat a‘zolarining tarbiyaviy-axloqiy madaniyatini shakllanishiga hamda madaniy-ma‘rifiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Din bilan bog‘liq bo‘lgan ziyoratlar, ularning tarixini o‘rganish

xalqning moddiy va ma'naviy boyligini oshirishda hamda ushbu maskanlar insoniyat madaniyatining ajralmas bo'lagiga aylanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Diniy urf-odatlar va ularning mazmun mohiyatini tog'ri talqin qilish axborotlar asrida turli diniy oqimlarga qarshi himoya vositasi vazifasini ham bajaradi va alohida tadqiq etish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Dunyo mamalakatlarida islomshunoslik, hadishunoslik kalom ilmi kabi fanlar yo'nalishida islom dini madaniyati, fani rivojiga xissa qo'shgan va bugungi kunda ziyoratgoh manziliga aylangan buyuk ulamolarning faoliyati, ilmu-irfonlarini o'rganish yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, Abdulloh ibn Muborak Marvaziy, Abu Turob Naxshabiy, Hakim Termiziy, Imom Termiziy, Abul Muyin Nasafiy kabi ulamolar asarlarining turli xorijiy tillarga tarjima qilinishi umuminsoniy g'oyalar va manaviy qadryatlar tiklashga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning Qashqadaryo viloyatida o'lkamiz tarixi bilan bog'liq ziyoratgohlar, jahonga mashhur tarixiy-memoriy obidalarni qayta tiklash bo'yicha qilingan ishlar milliy merosimizga bo'lgan hurmat ehtiromning namunasidir. Xususan, "Qashqadaryo vohsi 2700 yildan ziyot tarixga, qadimiy madaniyat va sivilizatsiya durdonalariga ega Naxshab, Nasab, Kesh kabi shaharlarda faoliyat ko'rsatgan, diniy hamda dunyoviy ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo'shgan Abu Turob Naxshabiy, Najmiddin Nasafiy, Sayyido Nasafiy, Abu Muhammad kishi kabi allomalarni yetishtirgan bebaho zamin hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda Qashqadaryo vohasida tug'ilib, ijod qilgan olimlar, xususan, Nasafiy, Termiziy, Naxshabiy, Keshiy nisbasi bilan mashhur bo'lgan, hadis, fiqh, tasavvuf kabi islom ilimlarining rivojlanishida katta hissa qo'shgan, hozirda ular joylashgan manzil ziyoratgoh va muqaddas qadamjo sifatida mahalliy aholi orasida foydalanib kelinayotgan shaxslarning ilmiy merosini tadqiq qilish, janubiy voha tarixini o'rganish bilan bir qatorda, olimlarning islom ilmlari madaniyatida kutgan o'rnini aniqlashga xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining davriy chegarasi. Ishning davriy chegarasi etib, XIV asr oxirlaridan XX asr boshlarigacha va mustaqillik yillarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Bitiruv malakaviy ishning obykti sifatida XIV va XX asrlarda Qashqadaryo vohasida joylashgan muqaddas ziyoratgohlar va qadamjolar va bundan tashqari tarixiy monumentlar etib belgilab olindi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti etib, ushbu tarixiy davrda voha hududida sodir bo‘lgan jarayonlar va barpo etilgan muqaddas manzilgohlar, ularning aholi turmush tarzidagi ahamiyati etib belgilandi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Ishning maqsadi XIV asr oxirlaridan toki mustaqillik yillarigacha vaqt davomida voha hududida mavjud bo‘lgan ziyoratgohlarni davr manbalari, adabiyotlar hamda ilmiy tadqiqot ishlari orqali ochib berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Mazkur ishning asosiy vazifasi sifatida quydagilar belgilab olindi:

- voha hududida XIV asr va hozirgi kunda muqaddas ziyoratgohlarga aylantirilgan qadamjolarini manba va adabiyotlar orqali tahlil qilish;
- voha ziyoratgohlarining qurilish tarixi hamda ularni asrashga doir chora-tadbirlar
- mustaqillik yillarida turizmni yanada rivojlantirish va shu asnoda Qashqadaryo viloyatida o‘tkazilayotgan ma’naviy – ma’rifiy tadbirlar
- o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan to‘plangan ma’lumotlar asosida umumiy xulosalar berishdan iborat

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Qashqadaryo vohasida necha asrlardan buyon mavjud bo‘lib kelayotgan muqaddas qadamjolar, ilm-sohasiga hissa qo‘shgan buyuk ulamolar nomlari bilan

bog'liq ziyoratgohlarning aniq qurilgan sanalari va kimlar tomonidan barpo etilganligi o'z izohini topdi.

Bundan tashqari ushbu maskanlar o'z davlarida qay maqsadda foydalanilganligi, shuningdek, turli urush yillarida vayrona holatlarga keltirilganligi va yurtimizdagi sovetlar boshqaruvi davridagi holatlari aniq ko'rsatib o'tildi.

Mustaqillik yillarida esa butun respublika bo'ylab turizm sohasini yanada rivojlantirish, yurtimizga xorijlik turistlar oqimini kengaytirishga doir chiqarilgan qarorlar va bundan tashqari, xalqaro YUNESCO tashkiloti bilan hamkorlikda olib borilayotgan ma'daniy-ma'rifiy masalar voqea hududida mavjud bo'lgan barcha turistik obyektlar va ziyoratgohlarning aniq sonlari o'rganib chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili).

Butun Respublika bo'ylab muqaddas ziyoratgohlar, shu jumladan, Qashqadaryo vohasida joylashganlari ham bir qator tarixchi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan. Mazkur mavzuga oid adabiyotlarni davriylik jihatidan quydagi ikki guruh: 1) sovet hukmronligi davridagi nashr etilgan adabiyotlar, 2) O'zbekiston davlat mustaqilligi davri tadqiqotlariga ajratilib o'rganildi.

Birinchi guruhga kiruvchi mavzuga oid sovet davrida chop etilgan tadqiqotlarda sinfiylik mafkurasining ustunligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Biroq, tadqiq etilgan etilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishda bu adabiyotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu adabiyotlarga M. Veber, E. Dyurkgeym. T. Lukman va P. Berger va boshqalar o'rganilayotgan muommoga kommunistik mafkura, sinfiylik nazaryasi doirasida yondashilgan¹. Mazkur tadqiqotlarning mazmunida sovet hokimyatining inqilobdan keyin barcha qilgan ishlari kamchiliksiz, faqat yaxshi tomonlarini ko'rsatish kabi qarashlar asosiy o'rin tutadi. Bu davrga oid tadqiqotlarda sovet tuzumi davrida o'lkada yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlar tahliliga alohida e'tibor qaratildi.

¹ Болтабоев С. Чоризм ҳукмдорлиги даврида ислом. Ўқув-услубий қўлланма. – Наманган, 2005. – 123 б.

Ikkinchi guruhga O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlarda o'tmishga, tarixga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib, uni xolislik, haqqoniylik tamoyillari asosida o'rganishga katta ahamiyat berildi. Mustaqillik yillarida nashr etilgan kollektiv monografiyalar hamda N. Ismoilov N. Vasilov, A. Rahimov va boshqalar tomonidan nashr etilgan adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarda voqea hududida joylashgan muqaddas manzilgohlarni va ularning aholi turmush tarzida tutgan ahamiyati, tarixi haqida ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishda qo'llangan tadqiqot usullarini olib borishda qiyosiy tahlil, muommoviy va miqdoriy tahlil, xronologik, tizimlilik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyatini XIV asr oxirlari va mustaqillik yillarida voqea hududidagi muqaddas qadamjolar holati, hamda bu davrdagi o'lka tarixi to'g'risida xolisona o'rganishga doir ilmiy-nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish, mavzuga oid ilmiy va nazariy xulosalarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishda umumlashtirilgan ma'lumotlardan O'zbekiston tarixining ajralmas qismi bo'lgan voqea ziyoratgohlari tarixiga doir qismlarini yoritishda, umumiy o'rta ta'lim o'quvchilari uchun yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalarini tayyorlashdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining qisqacha tavsifi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat.

Tadqiqotning kirish qismida bitiruv malakaviy ishi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi, tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi, vazifalari, ilmiy yangiligi, tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili), tadqiqotda qo'llanilgan ilmiy tadqiqot usullarining tasnifi, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati, ish tuzilmasining tavsifi kabi masalalar yoritilgan.

Tadqiqotning birinchi bobida, XIV asrlarning ikkinchi yarmi – XV asr boshlaridagi Qashqadaryo vohasidagi ziyoratgohlarni tarixshunosligi tahlil qilish va shunga doir qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatalar asoslari ochib berilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobida esa, XV asrning ikkinchi yillaridan toki mustaqillim yilllarigacha mavjud bo‘lgan ziyoratgohlar tasnifi va ular joylashgan mavzelar va shu bilan birga ziyorat turizmini ayniqsa, vohadagilarini istiqbolli yo‘nalish sifatida belgilab olingani ko‘rsatib o‘tildi.

Tadqiqotning uchinchi bobida esa, Qashqadaryo turizmi uchun mustaqillik yillarida olib borilgan rekonstruksiya ishlari va shuningdek, xorijiy sayyohlarni ushbu muqaddas maskanlarga jalb etish borasida xalqaro YUNESCO tashkiloti bilan olib borilayotgan hamkorlik ishlari batafsil yoritib o‘tildi.

Bitiruv malakaviy ishi yakunida esa uchta boblarda keltirilgan tahlil va tavsiflarni umumlashtiruvchi umumiy xulosalar berilgan.

Mazkur bitiruv malakavi ishi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti qoshidagi AL- 662205481 sonli “Qashqadaryo vohasi tarixiy va madaniy yodgorliklari, ekoturizmiga oid ziyoratgohlarning “i-turism” platformasini ishlab chiqish” mavzusidagi 2024-yil 3-yanvardan 31-dekabrigacha mo‘ljallangan amaliy loyiha doirasida bajarildi.

I. BOB. QASHQADARYO VOHASIDAGI ZIYORATGOHLAR TARIXI TARIXSHUNOSLIGI VA ULARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Mavzuning manbashunosligi va tarixshunosligi tahlili

Tarixiy jarayonlarni yoritishda manbalar, bevosita shu davr voqea hodisalarini o'zida aks ettiribgina qolmay, balki jamiyat o'tmishining turli jihatlarini o'rganib, bugungi savollarga javob topishda vosita yordamchi hisoblanadi. Manbalar yordamida xalqlarning urf-odati, an'analari, tili va moddiy madaniyat buyumlari, yozma yodgorliklari aniqlanadi. Ular har qanday tarixiy tadqiqotning asosi hisoblanib, jamiyat rivoji tarixini yoritishda, shakl va mazmunini ilmiy jihatdan o'rganishda muhimdir. Avstraliyalik mashhur tarixchi E. Berneim manbani tarixni tiklash uchun eng muhim material sifatida baholagan².

Tarixchi manbashunoslikning manbalar xususiyatini o'rganar ekan, turlicha ijtimoiy axborotlarni oluvchi, uni tanqidiy nuqtai nazardan tekshiruvchi va talqin qiluvchi usullarini ishlab chiqadi. Shu ma'noda, turli tarixiy davrlarda, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida ziyoratgohlar masalasi va ularning ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi ahamiyati borasida turlicha munosabatlar bo'lganligini kuzatish mumkin. Umuman olganda, tarixiy manbalar- bu tarixiy jarayonlar, alohida faktlar, sodir bo'lgan hodisalarni o'zida mujassam etgan moddiy madaniyatga tegishli hujjat va predmetlarning bir birini to'ldiruvchi majmuidir. Ularning asosida yoki bu tarixiy davr haqidagi tasavvurlar shakllantirilib, turli tarixiy voqealarni keltirib chiqargan sabab va oqibatlar haqidagi ilmiy gepotezalar ilgari suriladi. Shuning uchun ham manbaning haqqoniyligi va aslligi darajasini aniqlash uni tanqidiy o'rganishning eng muhim sharti hisoblanadi³.

Tarixiy manbalar sifatida xizmat qiladigan arxeologik va yozma manbalarning vazifasiga qarab tasniflagan olimlar ularning orasida qabrlar,

². Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар туғрисида // Ўзбекистоннинг янги Конунлари. 19-сон. – Тошкент: Адолат, 1998

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 февралдаги № ПК-2774 “Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот марказини ташкил этиш чора-тадбирлари туғрисида”ги қарори. <https://lex.uz/doc/3113645>

ibodatxonalar, g'orlar, petrogliflar (qoyalarga chizilgan rasmlar) va aholi turmushi bilan bog'liq alohida topilmalarni ajratib ko'ratishgan.

Xususan, ziyoratgohlar masalasining turli hujjatlarga doir ma'lumotlar asosan islom manbalarida keltirilgan. Ta'kidlash lozimki, o'rta asrlarda, Qashqadaryo tarixini yorituvchi ma'lumotlar hudud toponomikasi, geografiyasi, aholi turmush tarzi va joy nomlari bilan bog'liq ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, dastlabki ma'lumotlar X asrda Keshga kelgan arab sayyohi Ibn Xavqal asarida keltirilib, unda Kesh shahri ko'xandiz, xisna va rabotdan tashkil topganligi shahar Madina rabot bilan tutashib ketganligi aytiladi. Ichki shahar va ko'handiz xaroba holatda bo'lib, shaharning barcha imoratlari loydan va yog'ochdan qurilgan⁴.

Kesh shahridagi qishloqlarning aholisi haqidagi ma'lumotlar, bu yerda tashrif buyurgan yana bir arab sayyohi Muqaddasiy (X asr), Tabariy (839-923) va Ishtaxriy (vaf. tax. 957) asarlarida ham uchraydi⁵

Abdulkarim as-Samoniyy XII asr o'rtalarida Buxoro, Samarqand, Xorazm, Nasaf, Kesh va Termiz shaharlariga tashrif buyurib, Qarshi vohasida bo'lgan vaqtida, u yerning shahar va qishloqlarini, olim va fuzololarini o'rgangan, ular bilan tanishib, suhbat qurgan. Uning "Nasafnoma" ("al-Ansob") nomli qimmatli asarida, Samarqand, Nasaf va Keshlik 90 ta allomaning nomi zikr etiladi⁶. Jumladan, Qarshi tumanidagi hozirgi Qovchin (avvalgi Ibsan qishlog'i) dan yetishib chiqqan allomalar haqida ham ma'lumot beradi. Abdulkarim as-Samoniyyning ma'lumotiga ko'ra 834 yil Nasafda birinchi marta shayx Abu Abid ar-Rahmon Mu'oz ibn Yoqub kosoniy jome masjidida, unga yaqin joyda so'fiylar uchun rabot, quduq va taxoratxonalar qurdirilgan⁷. Aynan mana shu kabi ma'lumotlar tarixshunoslik va manbashunoslikka oid ma'lumotlar sirasidan keltirilgan.

⁴ Абриев Х. Амир Темури ва темурийлар даври меъморий обидалари бунёд этилиши ҳамда таъмирланиши тарихидан // Имом ал-Бухорий сабоклари. 2008. 1-сон. – 129 б.

⁵ Буриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларда Марказий Осиё. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 234 б.

⁶ Абдуллаев Ҳ. Насаб ва кеш алломалари // Имом ал-Бухорий сабоклари. – Тошкент: 4-сон, 2006. – 78 б.

⁷ Абдуллаев Ҳ. Насаб ва кеш алломалари // Имом ал-Бухорий сабоклари. – Тошкент: 4-сон, 2006. – 89 б.

Ma'lumki, islom dini rivojiga hissa qo'shgan tasavvuf shayxlarining davlat podshohlar oldida ham obro'yi baland bo'lganlar islom ulamolarini juda hurmat qilib o'zlariga pir deb bilgan, pir – muridlik darajasida rivojlangan⁸. Aynan shu asnoda, avliyolarning qabrlari vafotlaridan keyin ham katta ziyoratgoh bo'lib qolgan. Ularning xalq orasidagi obro'yi, ko'rsatgan karomatlariga qarab, ziyoratgohning mavqei ko'tarilgan. Boshqa davlatlardan kelgan elchi, sayyohlar ham islom olamida mashhur bo'lgan shaxs hurmati uchun ularning qabrlarini ziyorat qilgan.

Aytish mumkinki, islom manbalari orqali ziyorat termini, uning mazmun mohiyati, din qonun – qoidalarida mazkur ibodatning kelib chiqishi va shakllanishiga munosabat ko'rsatib beriladi. Boshqa tomondan, janubiy O'zbekiston hududida yashab, ijod qilgan islom ulamolarining asarlari orqali tarixiy jarayonlarini baholaydi va ziyorat tarixining diniy e'tiqod jarayonining aholi ijtimoiy – ma'naviy hayotidagi ahamiyatining axloqiy – tarbiyaviy jihatlarini o'rganish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston dini, milliy va manaviy qadryatlarining bir bo'lagi hisoblangan ziyoratgoh va muqaddas qadamjolar tarixini o'rganish, xalqimiz tafakkurini shakllanishiga ko'rsatgan ta'sirini tadqiq qilish o'zbek xalqi milliy mentaliteti, o'zlik masalasining tarixiy ildizlarini ochib berishga imkon beradi. Muqaddas qadamjolarining tarixi va ularning ziyorat obyektiga aylanishini o'sha davrdagi tarixiy jarayonlar, aholining mentaliteti, xalqning ruhiyati va kayfiyatini hisobga olgan holda tadqiq etis katta ahamiyatga molik masala hioblanadi. Shu jihatdan, O'zbekiston hududida qadimgi davrlardan shakllanib, takomillashib kelgan an'anaviy qadryat va urf-odatlarining jamiyat ijtimoiy, siyosiy-iqtisodiy munosabatlardagi o'rnini o'rganish alohida kasb etadi. Mazkur mavzu yuzasidan turli ko'rinishdagi adabiyot va tadqiqotlar yaratilgan bo'lsada, ularda Markaziy Osiyo xalqlari turmush tarzida ziyoratgoh masalasi, uning kelib chiqishi va

⁸Абриев Р. Ўзбекистонда тоат ибодат билан боғлиқ архитектура ёдгорликлари хусусида // Имом ал-Бухорий сабоклари. – Тошкент: 2005, 4-сон. – 67 б.

aholining munosabati Farg‘ona, Qo‘qon, Xorazm, Buxoro ziyoratgohlari misolida tadqiq etilgan.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, ayrim kichik hajmdagi ilmiy maqolalarni inobatga olganda, hozirga qadar O‘zbekistonning janubiy hududlaridagi ziyoratgohlar muqaddas qadamjolar alohida tadqiqot doirasida o‘rganilmagan. Rossiya imperiyasi (1867-1917), sovet hokimiyati (1917-1991) hamda mustaqillik yillarida, O‘zbekistonning janubiy hududidagi muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar masalasi etnografik jihatdan qiyosiy tahlil qilinmaganligi va bu borada, yaxlit mustaqil taqiqotning majud emasligi mavzuni tadqiqot darajasida o‘rganishni taqozo etadi⁹.

Ta’kidlash lozimki, ziyorat masalasi, bevosita diniy ibodat bilan bog‘liq bo‘lib, dinshunoslik yo‘nalishida yaratilgan adabiyotlarda turli dinlarning kelib chiqishi taraqqiyoti tarixi, ta’limoti, asosiy manbalari, hozirgi davrdagi holati, ma’lum xalq hayotida tutgan o‘rni dunyo dinlar tarixi misolida ko‘rsatib berilgan. Mazkur turdagi asarlarda, islom dini va uning tarixi taxlil qilinishi barobarida islom dinida ibodatning turlari sifatida haj hamda musulmonlar orasida qabr ziyorati masalasining umumiy jihatlari to‘g‘risida ham ma’lumotlat keltirilgan.

Shuningdek, islomshunoslik yo‘nalishida, buyuk allomalar ijodiy merosiga bag‘ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilib, nafaqat umumiy tarix hajmida, islom dini ta’limotida muhim o‘rin tutgan shaxslar, ya’ni avliyo, pir darajasidagi ulamolar va ularning ta’limoti, jumladan, ziyoratning turlari, islomda qabrlarni ziyorat qilish masalasi, tasavvuf va tariqatlarning tarqalishi bilan bog‘liq qarashlar asosidagi xulosalar ilmiy tadqiq qilinadi¹⁰. Mazkur turdagi adabiyotlar ziyoratgohlarning paydo bo‘lishi, avliyolar, pirlar nomi bilan bog‘liq muqaddas joylar hamda islom olamida mashhur tasavvuf vakillarining fikrlari borasida yangi ma’lumotlarni olish imkoniyatini yaratadi.

⁹ УЗМА, Фонд-394 Санъат, табиат ва кадимги ёдгорликларни саклаш Урта Осиё кумитаси.

¹⁰ Абриев Р. Ўзбекистонда тоат ибодат билан боғлиқ архитектура ёдгорликлари хусусида // Имом ал-Бухорий сабоклари. – Тошкент: 2005, 4-сон. – 341 б.

Ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonning janubiy hududidagi ziyoratgohlar masalasining tarixshunosligini tadqiq etishda, uni nafaqat mustaqillik davri, balki mustamlaka va sovet yillarida unga bo‘lgan munosabatni ko‘rsatuvchi adabiyotlarni ham alohida tahlil etish maqsadga muvofiq, deb uylaymiz. Shu jihatdan, mavzu obyekti mustaqillik davrida tegishli bo‘lsa-da uning kelib chiqishi, rivojlanishi va tarixiy asoslarini aniqlashda yordamchi hisoblangan ilmiy tadqiqotlarni asosan yo‘nalishlar bo‘yicha xronologik va muommoviy jihatdan uchta guruhga bo‘lib o‘rganish lozim.

- a) Sovet yillari (rus va mahalliy tarixshunoslik);
- b) Mustaqillik davri (mahalliy va zamonaviy rus adabiyotlar);
- c) Xorij tarixshunosligi¹¹.

Markaziy Osiyo musulmonlari yashaydigan hududlarning Rossiyaga qo‘shib olinishi olimlarning tarix, madaniyat va aholi turmush tarzini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni ortirdi. Ular o‘z xizmatlari davomida mahalliy aholi bilan birga yashab ularning turmush tarzini o‘rganganlar va xulosalar asosida, Turkiston musulmonlarining ziyoratgohlari, mozor, muqaddas joylari to‘g‘risida ma’lumot berganlar¹². Mazkur mualliflar tomonida mahalliy aholi hayotiga yoki uning islom diniga nisbatan munosabati ba’zi o‘rinlarda salbiy baholangan, ba’zan etnografik nuqtai nazaridan bayon etilgan.

Masalan, hududiy ziyoratning o‘ziga xos xususiyatlarini akademik V. V Bartold asarlarida tilga olinsa, Turkiston musulmonlarining ziyorat masalasi CH. Valixonov tadqiqotlarida berib o‘tiladi¹³. Shuningdek, aynan shu davrda mahalliy aholi turmush tarziga oid asarlarga muqaddas joylar to‘g‘risida fragmentlar eslatib o‘tilgan ma’lumotlar rus mualliflarining geografik – statistik harakteriga ega bo‘lgan ma’lumotlarida ham aks etadi.

¹¹ Хушваков Н. Кашкадарё тарихига саёҳат. – Тошкент: Илм-зиё-заковат, 2020. – 213 б,

¹² Ашуров А.А. Узбек халкининг қадимий ётиқот ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий қутибхонаси нашрети, 2007. – 56 б.

¹³ Абриев Р. Ўзбекистонда тоат ибодат билан боғлиқ архитектура ёдгорликлари хусусида // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Тошкент: 2005, 4-сон.

Aytish lozimki, O'zbekistonda ziyoratgohlar faoliyatining ayrim jihatlarini yoritilgan sovet yillaridagi adabiyotlarda, nafaqat O'zbekistonning janubiy hududi balki, ziyoratgohning umumiy xususiyati va aholining munosabati tahlil qilingan. Turkiston mustamlaka davri ziyorat masalasini tadqiq qilgan olim V. Litvinov ham o'z tadqiqotida, muommoning o'rganish jihatlarini ta'kidlab, sovet tarixshunosligida, ziyorat masalasi hukumat siyosati darajasida o'rganilmaganligini qayd etadi. XX asrning 20 yillarida musulmonlarni inqilobiy o'zgarishlarga jalb qilish maqsadida partiya va sovet adabiyoti bu masalani o'rgana boshlagan. B.L. Kuftining "Qozoq madaniyati va hayoti" to'g'risidagi¹⁴ kitobida xalqning muqaddas joylarga tashrifi haqida qisqa eslatib o'tadi. Keying yillarda musulmon ruhoniylari faoliyati keskin taqib ostiga olinib, mo'ror va qabrlariga tashrif qoloqlik va jahillik belgisi, deb baholanadi.

Ta'kidlash o'rinliki, XX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan barcha adabiyotlar jamiyatdagi siyosiy o'zgarishlar va kommunistik partiyaning g'oyaviy ta'siri ostida din bilan bog'liq estetik salqiti sifatida baholanib yoritilgan. Tadqiqotlarning asosiy obyekti sifatida islom dini va uning tarixini o'rganish belgilanga bo'lib, xususan T. Saidbayev, O. Suxareva, M. Jalolov, A. Axmedov, R. Mavlyutov kabi mualliflar o'z ilmiy ishlarida islom dini va u bilan bog'liq marosimlar tarixini salbiy baholab, taxlil qilganlar. Masalan, R. Mavlyutov "Islom" nomli risolasida mahalliy aholi hayotida ziyorat fenomeni to'g'risida fikr bildirgan¹⁵. Uning ta'kidlashicha, musulmonlar o'zlarining avvalgi ajdodlaridan qolgan diniy e'tiqod an'analariiga amal qilib, turli qadimiy inshoatlar qabrlar, qabristonlarni hamda daraxt, tosh va boshqalarni muqaddas joylar (mo'zorlar) sifatida hurmat qilishgan. Odatda bu mo'zorlar afsonalar bilan muqaddaslashtirilgan bo'lib, O'zbekiston hududida ilk bor V-VIII asrlarda musulmon mo'zorlariga sig'inish sifatida paydo bo'lgani qayd etilgan¹⁶.

¹⁴ Ёкубов Б. Халк байрамлари ва урф-одатлари. – Тошкент: Ўзбекистон КП МК нинг нашрети, 1965

¹⁵ Жабборов И.М. Худолар, авлиёлар ва одамлар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985

¹⁶ Абриев Р. Ўзбекистонда тоат ибодат билан боғлиқ архитектура ёдгорликлари хусусида // Имом ал-Бухорий сабоклари. – Тошкент: 2005, 4-сон. – 56 б.

Aytish lozimki, ziyorat va u bilan bog‘liq marosimlar, nafaqat o‘zbek xalqi orasida, balki o‘lkada yashovchi turli millat vakillari orasida saqlangan va hozirgi qadar qo‘llanib kelinayotgan urf-odatlardan biri hisoblangan. Shu jihatdan, Rossiya tarixshunosligining sovet yillari adabiyotlarida, boshqa hududlar aholisi (qozoq, qirg‘iz, turkman, tojik xalqlari) misolida muommoning ayrim masalalari yoritilgan. O. Murodov tadqiqotida, Zarafshon tojiklari misolida kultning kelib chiqishi shomonlik dini ildizlari bilan bog‘lansa, L. Tolistov tadqiqotida, Xorazm vohasi turkiy tilli aholisi o‘rtasidagi diniy ibodat shakllarining tarqalish asoslarini xalq folklori bilan bog‘lab uning tarixiy o‘tmishini massaget qabilasiga borib taqagan¹⁷. S. Abramzon diniy ibodatda kult masalasini qozoq. qirg‘iz, qaraqalpoq xalqi turmush tarzidagi diniy elimentlar misolida qiyosiy taxlil qilib, uning asoslarini bevosita qadimgi tarixiy jarayondagi diniy e‘tiqod ildizlari qoldiqlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatib bergan¹⁸.

Qashqadaryo so‘fiylik maktabining asoschisi Abu Turob Narshaxiy, mutafakir olim va shoir So‘fi Olloyor, Xazrati Xojagiy ibn Darvish Muhammad Imkanagiy, Xazrati Sulton Said Axmad Bashirlar ijodining tub mohiyatini ham islomiy ilmlar tashkil etadi, uning asarlari islom ruhida yozilgandir¹⁹. Aytish mumkinki, allomalarning asarlarida keltirilgan fikrlar va qarashlar xalqimizning hayot tarzi, tafakkuri o‘sishiga, yaxshilik va yomonlik, yoshlarning odamiylik sifatlari bilan tarbiyalanishida xizmat qiladi. Mahaliy aholi ma‘naviy hayotida ziyoratlar ahamiyati va diniy madaniy tarixning mazmunini ochib berishda Ch. Glok va R. Stark tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar asosida, dinning jamiyatdagi ahamiyati, diniy ibodat bu insonning o‘ziga xos ruhiy holati bo‘lib u jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘liqligi aniqlandi. Markaziy Osiyo

¹⁷Жабборов И.М. Узбек халки этнографияси. . – Тошкент: Укитувчи, 1994. – 97 б.

¹⁸ Алимов Усмонхон. Утганларни ёд этиш инсоний бурч // Ислом нури. 2013 йил 9 май. – 43 б.

¹⁹ Амонов М.У. XVIII-XIX асрларда Марказий Осиёда накшбандия-муҷаддидия тариқати билан боғлиқ меъорий ва эпиграфик маълумотлар // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси – 2020. 11-сон.

ziyoratgohlari klassifikatsiyasi asosida Qashqadaryo viloyati ziyoratgohlari alohida turlarda shakllantirishdi²⁰.

So'ngi yillarda post modern jamiyatda dinning aholi turmush tarzidagi ahamiyati masalasi o'z xususiyatiga ko'ra din darajasini o'zgarishi, diniy jarayonlarni tarqalishi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rib chiqmoqda. Bu jihatdan, A. Ko'rayva T.A. Bajan, N.A. Voroshilova, M. Shtrin kabi olimlarning mazkur masala yuzasidan nazariyalari muhim o'rin egallaydi²¹. Shuningdek, din bilan bog'liq jarayonlarning o'rganishning konseptual asoslariga doir qarashlarida (L.N. Mitrohin, I.G. Balagushkin) dinning inson hayotidagi fenomine, nazariy tushunchalar sentezi va emperik tatqiqotlarni taxlil qilish.

1.2. Vohadagi ziyoratgohlarni saqlash va ulardan turizm sohasida foydalanishga oid normativ hujjatlar tahlili

Bugungi kunda turizmni rivojlantirish jahon davlatlarida ustuvor masalaga aylangan bir paytda, turistik sohada mamlakatimiz salohiyati juda yuqori. Shu tufayli voha hududida mavjud tarixiy obidalarni yanada turistik holatini yaxshilash, yurtimizga xorijiy sayyohlar oqimini yanada kengaytirishga doir bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng nafaqat siyosiy-iqtisodiy masalada, balki madaniy, ma'rifiy va turizm sohalarini rivojlantirishga oid bir qator huquqiy-normativ farmon va farmoyishlar qabul qilindi.

Shu o'rinda aytish kerakki, turizmni rivojlantirishda, xorijiy sayyohlar oqimini yanada kengaytirish maqsadida butun Respublika bo'ylab joylashgan tarixiy maskanlar, muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, mozor va qabristonlarning holatini yaxshilashga doir chiqarilayotgan farmon va qarorlar Respublika iqtisodiy holatini yanada kuchaytirishga doir eng muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

²⁰ Ашуров А.А. Узбек халкининг кадимий еътикот ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутибхонаси нашрети, 2007. – 153 б.

²¹ Ахмадалиев Ю. Исмоилов О. Экологик ва зиёрат туризми обьектларини диний-хушукий муҳофаза қилиш усуллари // Ўзбекистонда туризм ва рекриатцияни ривожлантиришнинг географик муоммолари ва имкониятлари. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Чирсиқ, 2019.

Misol uchun, PF – 16-son “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida²²”, 2021 yil 9 fevral PF- 6165-son O‘zbekiston Respublikasi ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida²³”, 2021 yil 6-apreldagi PF-6199- son “turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi turizmni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017 yil 23-iyun PF-3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral PF – 49-47 son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida²⁴”, 2018-yil 16-fevral PF – 5416- son “Diniy ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida²⁵”gi qarorlarning barchasi Respublika hududida o‘rin olgan barcha turistik maskanlarni yanada obro‘yini butun dunyoga tarqatishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning janubiy viloyati hisoblangan Qashqadaryo viloyatida ilm-u irfon vakillari va islom dunyosida mashhur bo‘lgan allomalar yetishib chiqqan. Ularning nomi bilan bog‘liq islom me’morchiligining noyob arxitektura yodgorliklarini asrab-avaylash, obod etish, bu joylarda ziyorat turizmini rivojlantirish, nafaqat viloyat, respublikada, balki xorijlik turistlarni ham jalb etish, davlatimiz qadimiy tarixi, madaniyati, ma’naviyati va go‘zal tabiatini xorijga ko‘rsatish orqali iqtisodiyot rivojiga ulkan hissa qo‘shish imkoniyati yaratiladi. Shu munosabat bilan 2019-2020 yillarda Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini

²² Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар туғрисида” ПК-3217-сонли қарори. 2016 йил 16 август. www.lex.uz.

²³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2019-2021 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар туғрисида” ПК-3217-сонли қарори. 2016 йил 16 август. www.lex.uz.

²⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 февралдаги № ПК-2774 “Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот марказини ташкил этиш чора-тадбирлари туғрисида” ги қарори. <https://lex.uz/doc/3113645>

²⁵ Уша жой.

rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining manzili ro'yxati tasdiqlanishi mumkinligi bildirildi.

Harakatlar strategiyasining 10 ga yaqin bandi turizmni rivojlantirishga bag'ishlangani, Prizidentimiz Shavkar Mirziyoyevning 2022 yil 12 – iyul kuni Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig'ilishida so'zlagan ma'ruzasida belgilangan ustuvor vazifalar zimmamizdagi ma'suliyatni yanada oshiradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-son «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»²⁶, 2018 yil 3 fevralda PF-5326-son «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»²⁷ farmonlari, 2018-yil 6-fevralda PQ-3509-son «Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2018 yil 7 fevralda PQ-3514-son «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» qarorlari, 2019 yil 18 iyulda O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risida»²⁸gi qonuni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlari Qashqadaryo viloyatida turizm va rekreatsiya sohasini yanada rivojlanishida muayyan darajada xizmat qiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan Qaror va Farmonlarni qabul qilinganligi qisqa vaqt ichida Qashqadaryo viloyatining ko'pgina hududlaridagi tarixiy, diniy, buyuk siymolar qabrlari, masjid-u madrasalarining qaytadan tiklash va ta'mirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bevosita turistik obyektlarning ko'payishi va yaxshilanishiga, sayyohlarni dam olishi, ya'ni mehnat qobiliyatlarini qayta tiklash davomida iste'mol predmetlaridan foydalanishga e'tiborni yanada kuchaytiradi. Mamlakatimizda turizm industriyasini yanada rivojlantirish, xizmat

²⁶ <https://lex.uz>: O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi

²⁷ Дармонова М.А. Карши ва Шахрисабз шаҳарларида маданий мерос объектларининг муҳофаза қилиниши // Моддий-маънавий мерос ва умумбашарий кадрятлар. Республика илмий-амалий анжуман мақолалар туплами. – Тошкент: Лессон пресс, 2016

²⁸ www.uzbekiston.travel/ru/c/ziyosat/

ko'rsatish sifati va samaradorligini oshirish, yurtimizga kelayotgan xorijlik sayyohlar oqimini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni, Prezidentimizning 2016-yil 2-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bu borada muhim dasturilamal bo'lmoqda. Mazkur hujjatlar ijrosiga Qashqadaryo viloyatida ham alohida e'tibor qaratilib, hududda turizmni yanada rivojlantirishning yaxlit konsepsiyasini ishlab chiqish, hududlarda yangi turizm mahsulotlari yaratish va uni jahon bozorida targ'ib qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Soha rivojida xalqaro tajribadan keng foydalanish, hududlarda yangi turizm yo'nalishlari tashkil etish va ularni pasportlashtirish, ichki va tashqi turizm bo'yicha milliy va hududiy dasturlar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Viloyatimizda turizmni rivojlantirish uchun yuksak salohiyat mavjud, – deydi O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi Qashqadaryo viloyati vakolatli vakili Otabek Olimjonov²⁹. Boy madaniy merosga ega hududda muqaddas qadamjolar, qadimiy obidalar va ekoturizmni rivojlantirish uchun qulay manzillar ko'p. Viloyatda hududiy turistik mahsulotlarni xorij bozoriga chiqarish, tabiiy va tarixiy-madaniy manzillar bo'yicha yangi sayyohlik yo'nalishlari ishlab chiqish, turistik xizmatlar sifatini yanada yaxshilash doimiy e'tiborda. Shahrisabz shahrining tarixiy markazida barpo etilgan zamonaviy uy-joylar hunarmandlar va tadbirkorlarga uzoq muddatli imtiyozli kredit asosida berilmoqda. Ikki qavatli bunday uy-joylarning birinchi qavatida hunarmandlik mahsulotlari sotiladigan savdo majmualari, ikkinchi qavatida uy-mehmonxonalari tashkil etilmoqda.

Turizmni yanada rivojlantirish uchun ko'plab istiqbolli loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan 2008 yil 7 avgustdagi 938-sonli qarorida muqaddas qadamjolarni saqlash va obod etish xayriya jamga'rmasini tashkil etish

²⁹ Дармонова М.А. Карши ва Шахрисабз шаҳарларида маданий мерос объектларининг муҳофаза қилиниши // Моддий-маънавий мерос ва умумбашарий кадрятлар. Республика илмий-амалий анжуман мақолалар туплами. – Тошкент: Лессон пресс, 2016

to'g'risi³⁰da amalga oshirilayotgan ishlar naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi. "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora tadbirlari" to'g'risidagi 2021 yil 9-fevral sanasidagi PF-6165 son farmonning 9-bandiga muvofiq Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirish vz infratuzilmani yaxshilash maqsadida Qashqadaryo viloyati hokimligi byudjetdan tashqari 200 mlrd so'm mablag' ajratilgan.

O'zbek xalqi milliy ma'naviyati, tarixining bir qismi bo'lgan muqaddas ziyoratgohlar O'zbekiston tarixi va madaniyatida o'chmas iz qoldirgan mashhur kishilarning nomlari bilan uzviy bog'langan bo'lib, ularning beqiyos merosini aholi orasida targ'ib qilish hozirgi kunda katta ma'naviy - ma'rifiy ahamiyatga ega. Respublikada yetti mingdan ortiq yodgorliklar bo'lib shu jumladan, ularning 2500 tasini arxitektura yodgorliklari tashkil etadi, ularning 2700 dan ziyodi arxeologiya va mingdan ortiq mahobatli san'at yodgorliklari davlat himoyasiga olingan. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prizedenti I.A. Karimov tomonidan 2008 yil 7 avgustdagi 938-sonli qarorida muqaddas qadamjolarinis saqlash va obod etish xayriya jamga'rmasini tashkil etish to'g'risida amalga oshirilayotgan ishlar naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi³¹.

Yurtimizda yashab o'tgan buyuk allomalarning qadamjolariga ilmiy-tadqiqot ekspeditsiyalarini tashkil etish, xalqaro Respublika va viloyat miqiyosida ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazish an'anaga aylanib qoldi. Shu ma'noda, respublikada mavjud tarixiy yodgorliklar va diniy ahamiyatga ega bo'lgan obidalarini ta'mirlash, rekonstruksiya qilish, tiklash masalasida bir qancha tadbirlar amalga oshirilgani muhim sanaladi. Jumladan, Madaniyat ishlari Vazirligi qoshida Yodgorliklarni saqlash bosh boshqarmasi tomonidan 1992 yilda Madaniy merosni asrash qonuni ishlab chiqildi va O'zNIPI instituti va me'mor ta'minlash Master uyushmasiga ta'mirlash va tiklash ishlari yuklatildi. 1993 yil 5 yanvarda Amir Temur va Mirzo Ulug'bek nomlari bilan bog'liq me'moriy yodgorliklar ta'miri

³⁰ Ziyonet.uz: O'zbekistondagi jamoat axborat ta'lim tarmog'i

³¹ УзР Маданият вазирлиги Маданий мерос департаменти архиви 23-варог

bo'yicha hamda Jahongir maqbarasini qoldiqlarini gidrogeologik sharoitini o'rganish, uni muhofaza etish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqildi³². Shuning asosida, O'zbekistonda Mirzo Ulug'bek yubeliyening o'tkazilish munosabati bilan 1993 yil 1 oktabrda yubeliy obyektlarini ta'mirlash maqsadida Shahrisabz shahridagi yodgorliklarni o'rganishga doir ekspeditsiya uyushtirilib, moddiy mablag' ajratildi. Xususan, Shahrisabz shahri tarixiy arxitektura yodgorliklari uchun ajaratilgan mablag' 106,4 mln so'mni tashkil etgan va ta'mirlash ishlari Shamsiddin Kulol maqbarasida, Ko'k Gumbaz masjidi, Dor-ul tilovat, Gumbazi Sayyidon maqbarasi ta'miriga sarflangan³³.

IHT turizm vazirlarining IV yig'ilishi yakuniga ko'ra, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahri tashkilotining 2024-yildagi turizm poytaxt etib tasdiqlandi. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahri 2024 yil Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti turizm poytaxti deya e'lon qilindi³⁴. Bu haqda Turizm va madaniy meros vazirligi axborot xizmati O'zbekiston raisligida onlayn formatda o'tgan IHT turizmi vazirlarining IV yig'ilishi yakuniga ko'ra ma'lum qilindi.

Mazkur qarorning qabul qilinishida Shahrisabz shahrining boy tarixi va madaniy merosi, Ipak yo'lida turizmning rivojlanishidagi o'rni va sohasini barqaror rivojlantirish salohiyati inobatga olinadi. O'z navbatida, Shahrisabzning ushbu maqomni olishini keng miqyosda nishonlash ko'zda tutilgan. Qolaversa, shaharda va butun Qashqadaryo viloyatida turizm infratuzilmasini yaxshilash, ekoturizm, etnoturizm va boshqa yo'nalishlarda salohiyatni yuksaltirish, hududning nomoddiy merosini keng ochib beruvchi madaniy tadbirlar, turizm tadbirkorligi, shu jumladan, yoshlarning faolligini oshirish bo'yicha alohida dastur amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Normativ – huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida Vazirlar Mahkamasining “Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori loyihasi joylashtirildi.

³² УЗР Маданият вазирлиги Маданий мерос департаменти архиви 25-вароғ

³³ Имомназаров М, Эшмухаммедова М. Миллий маънавиятимиз асослари. – Тошкент: Маънавият, 2015

³⁴ Ислом ва ҳозирги замон / Ўқув қўлланма. Маъсул муҳаррир Ш.Ёвкочев. – Тошкент: ТИУ нашриёт матбаа бирлашмаси, 2010

Prezidentning 26.04.2023 yildagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida³⁵”gi qarori qabul qilindi. Hujjat O‘zAda e‘lon qilingan. Hujjat bilan hududlarning turizm salohiyatini oshirishga ko‘maklashish maqsadida oliy ta‘lim tashkilotlariga biriktirilgan hududlar ro‘yxati belgilandi. Ularga quyidagi vazifalar yuklatildi, masalan hududning turizm salohiyatini o‘rganish, hudud va uning tarixi, turistik ob‘yektlari va o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida turli tillarda kontentlar yaratish, ularni targ‘ibot qilish; nazariy bilim va amaliyotning uyg‘unligini ta‘minlagan holda professor va o‘qituvchilarning izlanishlari, talabalarning turizm sohasidagi nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash, hududlardagi aholi tomonidan turizm xizmatlarini ko‘rsatish sifatini yaxshilash hamda kadrlarning malakasini oshirishda ko‘maklashish.

Iqtisodiyot va moliya vazirligiga Transport vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda 2023 yil uchun Davlat byudjetidan mahalliy aviaqatnov yo‘nalishlarini subsidiyalash uchun qo‘shimcha 30 mlrd so‘m miqdorida mablag‘ ajratishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish topshirildi³⁶. Birinchi maydan boshlab 2024 yil 1 iyulga qadar turoperator xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik sub‘yektlariga chet ellik hamkorlariga taqdim etilgan hisobvara-q-fakturada ko‘rsatilgan QQSning 20 foiz miqdoridagi mablag‘lar respublika byudjetidan subsidiya sifatida qaytariladi. Bu holda turpaketlar joylashtirish, avtomobil yoki temir yo‘l transporti, ekskursiya va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, 5 nafar va undan ortiq norezidentlarga xizmatlar ko‘rsatishni nazarda tutishi kerak.

«Turizm to‘g‘risida»gi Qonunga, Prezidentning 13.08.2019 yildagi «O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5781-son Farmoni hamda Prezidentning 19.06.2020 yildagi «Sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi

³⁵ Истиклол йиллари: миллий-диний кадрларнинг халққа кайтиши. – Тошкент: 2001

³⁶ Мирзиёев Ш.М. Оккунгил, ориятли ва меҳнаткаш инсонлар юрти (Кашкадарё вилояти) // Буюк келажакимизни март ва олийжаноб халқимиз билан бирга кураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон. 2017.

talablariga qat'iy rioya qilgan holda, turizm sohasini rivojlantirishga doir ko'plab normativ hujjatlar joriy qilinmoqda.

2.1. Voha hududidagi ziyorat qilinadigan joylarning tasnifi

Qashqadaryo O'zbekistondagi o'zining go'zal tabiati, tarixiy obidalari va madaniy merosi bilan mashhur hududdir. Bu yerda Shahrisabznining qadimiy xarobalari, nurota tog'larining tabiiy issiq buloqlari, Gulkam kanyonining manzarali sharsharalari, Kasbi shaharchasining an'anaviy hunarmandchiligi kabi sayyohlar uchun keng ko'lamli diqqatga sazovor joylar mavjud.

Oqsaroy – Shahrisabzdagi me'moriy yodgorlik (1380-1404). Amir Temur qurdirgan. Shaharning shim. sharqidagi bosh maydonda joylashgan. Temuriylar davrida Oqsaroy majmuasi ham qurilgan bo'lib, barpo etilgan barcha inshootlar orasida eng antiqasi hisoblanadi. Ispan elchisi Klavixxo o'z kundaligida shaharda ko'plab mahobatli binolar va masjidalr borligini hamda qurilayotganini ta'kidlaydi, lekin Shahrisabz faqatgina buyuk amirning, taxt zamini" emas, balki Temurning tug'ilishidan ancha ilgari u o'z tarixiga ega edi³⁷.

Bir zamonlar muhtasham, xashamatli bo'lgan bu saroyning bizgacha yemirilib, xaroba holga kelgan ulkan peshtog'i, ikki chekkasidagi minorasi, saroy poydevorining bir qismigina saqlangan. Oqsaroyning hozirgi ko'rinishi ham salobatli va go'zal. Bu salobatlilik va go'zallikka g'ishtlarning yaxlit bo'lib ko'rinishini ta'mirlash – old va shimoliy devor yuzini sirkor parchinlar bilan bir tekisda ishlash tufayli erishilgan. Peshtoq ravog'ining eni 22,5 metr, balandligi 40m umumiy balandligi 50m dan oshadi. Peshtoq minorasi ichidagi aylanma zina orqali yuqoriga chiqiladi³⁸.

Oqsaroy ziyoratgohi: Shahrisabz tumanidagi Sohibquron Amir Temur davrida qurilgan me'moriy yodgorliklar (1380 – 1404)³⁹. Shahar bosh maydonida joylashgan bu tarixiy obida turistlarni jalb qilib turgan eng muhim turiztik maskan hisoblanadi. Uning old tarafida Amir Temur haykali bunyod etilgan. Bir zamonlar

³⁷ Клавихо Р.Г. Самаркандга-Амир Темур саройига саёхат кундалиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 235 б

³⁸ Сагдуллаев А.С. Кадимги Кеш ва Шахрисабз тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Шарк, 1998. – 11 б.

³⁹ Саидкосимов С. Амир Темур жаҳон тарихида. – Тошкент: Шарк, 2006. – 113 б.

muhrasham, hashamatli bo'lgan bu saroyning bizgacha yemirilib, xaroba holga kelgan ulkan peshtoqi, ikki chekkasidagi minorasi saroy poydevorining bir qismigina saqlangan⁴⁰. Oqsaroyning hozirgi kurinishi ham salobatli va go'zaldir. Peshtoq ravog'i eni 22,5 m, balandligi 40 m, umumiy balandligi 50 m dan oshadi. Peshtoq minorasi ichidagi aylanma zina orqali yuqoriga chiqilgan⁴¹. Devonxona peshtog'ida arslon va quyosh tasviri va Amir Temur davlatining uch halqa shaklidagi nishoni bo'lgan. Oqsaroy devorlaridagi ranglar jilosi, tarixiy, falsafiy va diniy mavzudagi, kufiy, suls yozuvlar, koshinkori bezaklar, naqshlarning o'zaro uyg'unligi binoga ajoyib va sehrli mazmun bag'ishlagan. ranglarni oy yorug'ida jilolanib oqarib ko'rinishidan bino "Oqsaroy" deb nomlangan⁴². Saroyning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – tom tepasiga ishlangan hovuzdir. Bu yodgorlikni ko'rish uchun har yili dunyoning turli burchaklaridanminglab sayyohlar keladi.

Mana shunday tarixiy obidalaridan yana biri, Ulug'bek mirzo otasi Shohrux mirzo nomiga atab qurdirgan masjid – Ko'k gumbazdir (1434 -1435)⁴³. Agarda biz ushbu binoning peshtoq ravog' qurilishiga nazar soladigan bo'lsak, ularning nomlari va qurilish vaqti bitilgan tarixiy yozuvlar saqlanganligini ko'rishimiz mumkin. Ko'k gumbaz masjidi Dorut -tilovat ansanbli tarkibidagi asosiy jome masjidi hisoblanadi. So'ngi yillarda O'zbekiston hukumati iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va yangi ish o'rinlarini yaratish strategiyasi doirasida Qahqadaryo vohasi va mamlakatimizning boshqa hududlarida turizmni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda. Ayniqsa, viloyat turizmi mintaqaga sayyohlarni jalb etish va O'zbekistonning umumiy turizm industriyasiga hissa qo'shishda muhim ahamiyat kasb etishi kutilmoqda.

Zamonaviy turistik joylardan biz Qarshi shahrida joylashgan qarshi ko'prigini misol keltirishimiz mumkin. Qarshi ko'prigi – qashqadaryo ko'prigi Qarshi shahri hududidan oqib o'tgan Qashqadaryo daryosi ustidan qurilgan⁴⁴,

⁴⁰ Хушваков Н. Кашкадарё тарихига саёҳат. – Тошкент: Илм-зиё-заковат, 2020. – 3 б.

⁴¹ Равшанов П. Кашкадарё тарихи. – Тошкент: Фан, 1995. – 601 б.

⁴² Клавихо Р.Г. Самаркандга-Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 193 б.

⁴³ Раимкулов А. Кашкадарё воҳасининг урта аср шаҳарлари. – Карши: Насаф, 2018. – 47-49 б.

⁴⁴ Зоҳидов М.С, Собиржонов А.С. Карши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – 321 б.

shaharni ikkala qismini bir – biri bilan bog‘laydigan ko‘prik. Qarshi shahri ramzlaridan biri Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milli ro‘yxatiga kiritilgan⁴⁵. Oxirgi marta 2016 – yil ta‘mirdan chiqqan. Bu yerda asosan yoshlar tashrif buyuradi. Kechki sayr uchun qulay joylardan biri deb ta‘kidlab o‘tsak ham bo‘ladi. Boy tarixga ega qadimiy ko‘prik hisoblanadi. Uning bir necha nomi bor masalan, Amir Temur ko‘prigi, Shayboniylar ko‘prigi, Qashqadaryo ko‘prigi, Nikolaevskiy ko‘prigi kabi nomlar bilan ataladi. Inshoot 1583-yilda forsha uslubda qurilgan. Qurilish Abdullaxon II tashabbusi bilan boshlangan bo‘lib, u uchun shaharda nafaqat piyodalar, balki savdo karvonlari uchun ham qulay o‘tish joyini yaratish muhim edi. O‘sha paytda Qarshi savdogarlar uchun muhim to‘xtash joyi bo‘lgan. O‘shandan beri ko‘prik shaharning ramzi bo‘lib kelgan. Uning uzunligi 122 metr, kengligi 8 metr, suv ustida balandligi 5 metr va 10 ta tutashtiruvchi kamarlardan tashkil topgan⁴⁶.

Odina madrasasi va masjidi. Bu shaharda ilk bor ayollar uchun madrasa va masjid qurilgan. Majmua XVI asrda vayron bo‘lgan Kebek xon saroyi o‘rnida qurilgan⁴⁷. Madrasada ayollarga ilm-fan va diniy ta‘limotlar o‘rgatilgan. Odamlar namoz o‘qib, farzandlari, yaqinlari uchun Allohga shukronalik keltirish uchun masjidga kelishgan. Bunday diniy majmua O‘rta Osiyoda yagona bo‘lib, hech qayerda o‘xshashi yo‘q edi. Ayni paytda masjidda shayboniylar sulolasining boy tarixidan hikoya qiluvchi muzey faoliyat ko‘rsatmoqda, ularning hukmdorlari va xonlari islom tarixiga salmoqli hissa qo‘shgan.

Mizro Ulug‘bek nomidagi xalqaro kenglik satansiyasi: Kitob tumani Xalqaro paralelda (39 gadus 08 minut) o‘tuvchi yagona aholi yashaydigan joy. Bu hududda jahonda sanoqli kenglik rasatxonlaridan biri qurilgan. Ushbu rasatxonada ko‘plab yangi sayyoralar kashf etib kelinmoqda⁴⁸.

⁴⁵ Равшанов П. Кашкадарё тарихи. – Тошкент: Фан, 1995. – 298 б.

⁴⁶ Абриев Х. Амир Темур ва темурийлар даври меъморий обидалари бунёд этилиши ҳамда таъмирланиши тарихидан// Имом ал-Бухорий сабоклари. 2008. 1-сон. – 96 б.

⁴⁷ Ахмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: 2001. – 293 б.

⁴⁸ Сагдуллаев А.С. Кадимги Кеш ва Шахрисабз тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Шарк, 1998. – 294 б.

Langar ota ziyoratgohi: Istiqlol yillarida ta'mirlanib, ziyoratchilar gavjumlashgan. Hozirgi Langar ota ziyoratgohi Langar ota qishlog'ida joylashgan. Dengiz sathidan salkam 1000 m balandlikda, XVI asrning oxiri XVII asr boshlarida Ashqarxoniyalar davlati hukumdorlari tomonidan barpo etilgan qo'sh maqbara Shayx Abul Hasan Ishqiya avlodlari Langar ota shayxlari maqbarasidir⁴⁹. Shiftdagi rangdor naqshlarda Sohibqiron Amir Temur bayrog'idagi "Abadiy hayot" ramziy shakllari naqshlangan. Shuningdek, Sulton Vasiydan qolgan ming yillik chinor va ul zotga daxldor Hukaktosh – teshiktoshga chiqib, shifobaxsh Boshmanbuloq suvidan ichish mumkin⁵⁰.

Dinazavr izi: Hisor qo'riqxonasi yaqinidagi Qala'i Sheron soyining tugash qismida baland ko'kimtir tosh qoyada yura davriga oid 190 – 195 mln yil avval yashagan 31 ta dinazavr izi mavjud.

Amir Temur g'ori - Markaziy Osiyoda chuqurligi va uzunligi jihatdan yagona bo'lgan g'or. Rivoyatlarga ko'ra, Sohibquron Amir Temur o'zining otliq lashkari bilan ushbu g'orda bir muddat saqlangan. Uzunligi 870 m, kengligi 7-10, ba'zi joylarda 100 metrigacha yetadi. G'orning shiftlarida uzunligi 1,5 – 2 m keladigan tabiiy mo'jizasi – stalaktit (sumalak) lar mashala yorug'ida kamalak ranglarida jilolanadi.

Suvtushar mo'jizaviy sharsharasi: tabiatning go'zal inomi hisoblanmish bu sharsharaning balandligi 84 m. dengiz sathidan 2 ming 100 metr yuqoridagi ulkan tosh qoyadan tushadigan suv parchalari go'zal qizni eslati. Shiddatli oqimdagi suv ko'pirib oppoq tusga kiradi. Shuning uchun mahaliy aholi uni "Sut shari" deb ham ataydi⁵¹.

Tohir – Zuhra maqbarasi: G'uzor tumanida joylashgan ushbu maqbara buyuk muhabbat egalari Tohir va Zuhraga tegishli. Bu ikki sevishganning muhabbati afsonasi tillarda doston bo'lgan. Ziyoratgohda nafaqat shu hududda yashovchi yigit – qizlar, balki diyorimizning turli burchaklaridan, hattoki, qo'shni

⁴⁹ Абдужаббор Ҳожи Соатов. Лангар ота табаррук манзилгоҳи ёҳуд Идрок шамчироғи. – Тошкент: Фан ва Технология, 2010. – 78 б.

⁵⁰ Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 64 б.

⁵¹ www.religions.uz

respublikalardan tashrif buyurganlarni, kelin – kuyovlarni uchratish mumkin. Yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlar ko‘nglida chin muhabbat timsoli bo‘mish Tohir va Zuhroga nisbatan ehtirom tuyg‘ulari jo‘sh urushi tabiiy. Chunki chin muhabbat qissasiga qiziqish hech qachon so‘nmaydi.

Qashqadaryo viloyatida Respublikadagi jami tarixiy obidalarining 17,76% joylashgan. Viloyat hududida bugungi kunda 1 ming 468 madaniy meros obyekti ro‘yxati olingan bo‘lib, ularning 1 mln 189 tasi arxeologiya, 208 tasi arxitektura, 43 tasi monumental yodgorliklar, 34 tasi diqqatga sazovor joylar hisoblanadi. Qashqadaryo viloyatida tarixiy obidalar soni asosan Shahrisabz, Qarshi va Kitob tumanlarida ko‘p uchraydi. Qashqadaryo viloyatida o‘zining uzoq o‘tmishiga ega ekanligi sabab tarixiy obidalar soni va imliy yangiligi turfa xillikni tashkil etadi. Qashqadaryo viloyatida tarixiy obidalar soni hududlar kesimida turlicha hisoblanadi. Masalan bugungi kunda viloyatda 48 ta mehmonxona, 194 ta mehmon uylari, 16 ta hostellar turistik qatlam uchun xizmat kuratmoqda. Hududda 17 ta yirik turistik obyektlar mavjud bo‘lib yil davomida 700 mingdan ortiq turistlarni o‘ziga qabul qiladi. Ma’lumot uchun, Qashqadaryodagi “Varganza” qishlog‘i viloyatdagi birinchi agroturizm qishlog‘i hisoblanadi. Bu yerda 2019-yilda birinchi marta “Anor” xalqaro agroturizm festivali bo‘lib o‘tgan va qishloqda “agroturizm qishlog‘i⁵²” maqomi berilgan. Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi “Bashir” qishlog‘i turizm qishlog‘iga aylantirilmoqda “Hazrati Bashir” ziyoratgohi aynan shu qishloqda joylashgan. Qayd etish lozimki, 2022-yilda “Hazrati Bashir” ziyoratgohiga 400 000 nafardan ortiq mahalliy va xorijiy turistik tashrif buyurgan Ushbu maskan nafaqat betakror tabiati, balki o‘ziga xos tarixi bilan ham e’tibor jabl qilib kelmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Qashqadaryo O‘zbekistonning xillama – xil tarixiy obidalar, go‘zal tabiati va madaniy merosi bilan har yili ko‘plab sayyohlarni o‘ziga jabl etuvchi hududdir. Viloyatdagi tarixiy obidalarining

⁵² <http://qadamjo.uz>.

aksariyati Sharisabz, Qarshi va Kitob tumanlarida joylashgan bo'lib, Shahrisabz YUNESCO ning Jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan⁵³.

Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyati- Qashqadaryo Respublikasidagi tarixiy obidalar hamda rekreatsion resurslar imkoniyatlariga ega hudud, respublikaning janubiy hududida joylashgan. Ushbu hududlardagi maskanlar ham ziyoratgoh ham dam olish maskanlari vazifasini o'taydi. Bulardan biri Miroqi shaharchasi – Shahrisabz tumanidagi kurort, rekreation resurslarga ega bo'lgan shaharcha hisoblanadi. Miroqi shaharchai dengiz sathidan 980 m balandlikda joylashgan bo'lib 1986 yilda shaharcha maqomini olgan⁵⁴. Shaharcha turizm va rekreatsia uchun xizmat ko'rsatish nigezida paydo bo'lgan shaharcha hisoblanadi. Shaharcha hududida sanatoriya, mahalliy ishlab chiqarish, savdo majmualari, sanoat korxonalari va oromgohlar mavjud. Respublika bo'ylab kelgan mahalliy sayyohlarga asosan apreldan sentabr oyigacha xizmat ko'rsatadi.

Mana shunday ajoyib oromgohlardan yana biri bu - Ko'l qishlog'idir. Shahrisabz tumanining baland tog' mintaqa hududlarida joylashgan qishloq sanaladi. Ko'l qishlog'iga olib boruvchi yo'l juda uzoq hisoblanadi va asosan qoya toshlar, chuqur daralar oralab o'tiladi. Ko'l qishlog'ida 1500 ga yaqin aholi istiqomat qiladi⁵⁵. Aholining asosiy turmush faoliyati esa mahalliy dehqonchilik, chorvachilik hamda sayyohlarga xizmat ko'rsatish hisoblanadi. Ko'l qishlog'iga yog'ingarchilik miqdori yuqori, qishloq juda sovuq va yoz nisbatan salqin bo'ladi. Yil davomida faqatgina to'rt oy davomida quyosh nur sochib turadi, qolgan vaqtlari esa yomg'ir va qor yog'adi. Qishloqqa olib boruvchi yo'llar asosan bir tomonlaman harakatlanuvchi yo'llar sanaladi. Qishloq hududida etnografiya va ekoturizm obidaları mavjud.

G'ilon qishlog'. Ushbu hudud Hisor tog' etaklarida joylashgan qishloq hisoblanadi. Mahalliy aholi chorvachilik, dehqonchilik bilan shug'illanadi. Qishloq hududida bir qancha ekoturizm obyektlari, rekreatsion shifobaxsh suvalari mavjud.

⁵³ Мансуров Р. Меъморий ёдгорликларни сақлаш ва таъмирлаш // Мозийдан садо. – Тошкент: 2004. 15 б.

⁵⁴ Манъковская Л.Ю. Кашкадарё воҳасининг археологик ёдгорликари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1979. – 58 б.

⁵⁵ Хушваков Н. Кашкадарё тарихига саёҳат. – Тошкент: Илм-зиё-заковат, 2020. – 185 б.

Qishloqda 7000 yaqin aholi istiqomat qiladi. Qishloq yo'llari tosh, qoyalar oralab borilganligi sabab tez-tez sel natijasida yo'llar yopilib qoladi⁵⁶.

2.2. Ziyorat turizmi Qashqadaryo viloyatida turizmning istiqbolli yo'nalishi sifatida

Mamlakatimizda turizm sohasini iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy jihatdan jadal rivojlantirish, hududlarning turizm salohiyatidan yanada samarali foydalanish, turizm tarmog'ini boshqarishni tubdan takomillashtirish borasida zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Qashqadaryo zamini o'zining boy tarixi, qadimiy osori-atiqalari, o'tmish yodgorliklari, betakror tabiati bilan soha rivojiga muhim o'rin tutib, sayyohlarga xizmat ko'rsatish faoliyati yo'lga bir necha yillardan beri yo'lga qo'yib kelmoqda.

O'rganilgan tadqiqotlar natijasida vo'ha bo'ylab bugungi kunda 1311 madaniy meros obyekti ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 1 ming 41 tasi arxeologiya, 200 tasi arxitektura 43 tasi haykal va 27 tasi diqqatga sazovor joylardir, - deydi O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi deputati Akmaljon Umurzoqov⁵⁷. – Bu madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish bilan birga, ularga rekonstruksiya va ta'mirlash ishlari olib borish juda muhim. Ayniqsa, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', G'uzor va Qarshi tumanlarida bu kabi milliy merosimiz namunalari ma'suliyatni yanada oshiradi. Tadbirda viloyatning boshqa tumanlarida ham sayyohlik yo'nalishlarini ko'paytirish mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanilgan holda ekoturizmni yanada rivojlantirish, Muborak tumani cho'llariga safar uyushtirish kabi bir qator loyihalar taqdim etildi. Turizmni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ijrosi tahlil qilinib, Qashqadaryoning ochilmagan turizm yo'nalishlari va foydalanilmayotgan imkoniyatlar bo'yicha ishlab chiqarilgan taklif va tavsiyalarr muhokama qilindi. Bundan tashqari, viloyatdagi har bir tumanning turistik xaritasinin tuzish, ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini qabul qilish, turizmni rivojlantirish yo'nalishida

⁵⁶ Сағдуллаев А.С. Қадимги Кеш ва Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Шарк, 1998. – 184 б.

⁵⁷ Дармонова М.А. Қарши ва Шаҳрисабз шаҳарларида маданий мерос объектларининг муҳофаза қилиниши // Моддий-маънавий мерос ва умумбашарий кадра́тлар. Республика илмий-амалий анжуман мақолалар туплами. – Тошкент: Лессон пресс, 2016

faoliyat yuritmoqchi bo'lgan yosh tadbirkorlarga imtiyozli kredit mablag'i ajratish, turistik fermalarga litsenziya berish tartibini soddalashtirish, agroturizm, etnografik turizmini rivojlantirish mehmonxona va servis xizmat imkoniyatlarini kengaytirish, turistik mashrutlar hamda viloyat qo'riqxonalarini jahon standartlar darajasida takomillashtirish yuzasidan vazifalar belgilab olindi⁵⁸.

“Shahrisabz vino-arog” aksiyadorlik jamiyati bilan hamkorlikda Kitob tumanini tokzorlarida oliy navli uzum mahsuloti bo'lgan vino degustatsiyasini tashkil qilish orqali agroturizmni rivojlantirish, ekstremal turizm sohasida Muborak tumanidagi cho'llarda kvadrotsikllarda safar uyushtirish, tarixiy-madaniy turizm bo'yicha Shahrisabz shahri markazida “Zafarli yurish” va “Shoh bazmi” teatrlashtirilgan tomoshalarini muntazam tashkil etish, uloq-ko'pkari musobaqalarini Kitob tumanining Qaynar qishlog'ida yil davomida muntazam o'tkazish loyihalari shular jumlasidandir. 2017-yilning avgust oyida o'tkazilishi rejalashtirilgan "Hunarmandlar festivali" ham viloyatda turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ekoturizmni rivojlantirishda Shahrisabz tumanida qurilayotgan “Village Eco Park” majmuasi muhim ahamiyatga ega⁵⁹. Mazkur loyiha mehmonxona, restoran, kafe, sport maydonchalari va attraksionlarni o'z ichiga oladi. Majmua 2018-yilda foydalanishga topshiriladi. Viloyatda turistik resurslardan samarali foydalanish, ko'rsatilayotgan xizmat turlarini ko'paytirish va sifatini zamon talablariga moslashtirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar tufayli Qashqadaryoda 30 mehmonxona faoliyat ko'rsatmoqda. Yildan-yilga ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, zamon talablari darajasida yuqori sifatli xizmat ko'rsatish imkoniyati kengaymoqda. Qashqadaryo viloyati turizm sohasini 2017-2018-yillarda kompleks rivojlantirish dasturi asosida 2018-yilda viloyatdagi mehmonxonalar sonini 45 taga yetkazish rejalashtirilgan⁶⁰. Jumladan, Qarshi shahrida 8 yangi zamonaviy mehmonxona, Shahrisabz shahrida 5 uy-

⁵⁸ Жабборов И. Узбеклар: турмуш тарзи ва маданияти. – Тошкент: Укитувчи, 2003. – 95 б.

⁵⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2018-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш буйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида” ПК-3217-сонли қарори. 2016 йил 16 август. www.lex.uz.

⁶⁰ <http://qadamjo.uz>.

mehmonxonasi va 2 yangi zamonaviy mehmonxona faoliyat boshlaydi. Bularning barchasi viloyatga keluvchi sayyohlar sonining ortishi, eng muhimi, aholi bandligini ta'minlash va kelajakda Qashqadaryo viloyatini sayyohlar, tarixchi olimlar va ziyoratchilar ko'p keladigan sevimli maskanga aylantirishga xizmat qiladi.

Binobarin, inson bo'sh paytlarida foydalaniladigan resurslardan to'g'ri foydalanilsa, jamiyatning iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy taraqqiyotini puxta o'rganadi. Insonlarni dam olishi va tabiat qo'ynida ma'naviy-estetik hordiq chiqarishlari, turli xil kasalliklarni davolash, o'ziga xos turli tabiiy, kimyoviy xususiyatlarga ega bo'lgan tabiiy omillardan foydalanish salohiyati katta. Shu sababli, tog' va tog'oldi hududlarida mineral suvlardan davolovchi maqsadida foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu hududlar o'zini obodligi, tabiiy, madaniy-tarixiy majmualarning darajasi va dam oluvchilarga ko'rsatilayotgan xizmat holatiga juda katta zarurat sezadi. Prezidentimizning «Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish to'g'risida⁶¹»gi farmonida tabiat tomonidan yaratilgan noyob yodgorliklarni saqlash va ulardan turizm, rekreatsiya, tibbiyot va boshqa maqsadlarda oqilona foydalanish masalalari ham nazarda tutilgan. Viloyat hududining tabiiy resurs imkoniyatlarini hisobga olgan holda, rekreatsion-turistik ob'ektlar va turistik firmalar sonini ko'paytirish va ularning ixtisoslashuvi hamda hududiy tarkibini takomillashtirish bo'yicha turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Qashqadaryo viloyati rekreatsion jihatdan shifobaxsh buloqlari, dam olish maskanlari, sanatoriyalar, sohil hududlari mavjud. Mustaqillik O'zbekiston uchun o'ziga xos bo'lgan taraqqiyot yo'lidan borayotgan hozirgi sharoitda jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish, milliy va diniy qadryatlatni tiklashga erishish muhim vazifalardan biri sanaladi. Shu ma'noda, azaliy an'analariga asoslangan milliy mafkura mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarni asosi bo'lib xizmat qiladi.

⁶¹ Жабборов И.М. Узбек халки этнографияси. . – Тошкент: Укитувчи, 1994. – 90 б.

Islom tinchlik, iymon, ehson, poklik vatanparvarlik dini ekanligi istiqloq yillarining ilk kunlaridanoq alohida ta'kidlandi. U xalqning ma'naviyati va madaniyati uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi, qayta tiklanayotganligi, jamiyatimizni yaxshilash va taraqqiy ettirish yo'lida muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitishga hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir. Yuksak madaniyatni esa, chuqur ichki manaviyatga ega bo'lgan xalq yaratadi. Ana shu xalqgina buyuk yaratuvchanlik qudratiga ega bo'ladi⁶². Shu jihatdan, ajdodlarimiz tomonida yaratilgan ulkan bebaho milliy qadryatlarimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Jumladan O'zbekistonning birinchi prezidenti boshchiligidan bu sohada muhim o'zgarishlar amalga oshirilib, biron bir jamiyatni odamlar ongida o'z milliy qadryatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini taasavvur etib bo'lmasligi ta'kidlandi.

Ziyoratgohlar va u bilan bo'liq allomalar nomi milliy madaniy – qadryatlarning bir bo'lagi sifatida izohlanadi. Milliy madaniy-qadryatlar aslida muayyan xalqqa, millatga uning ajdod-u avlodlariga ta'luqli bo'lgan qimmatbaho moddiy va ma'naviy boyliklarni o'z ichiga olgan, shu xalq yaratgan tarix, madaniyat yodgorliklari, avloddan avlodga o'tib, rivojlanayotgan merosi, ajdodlardan qolgan ilmiy, madaniy, falsafiy, badiiy asarlar, an'ana marosim va boshqa qadryatlarni jamlaydi.

Jamiyatda milliy qadryatlarni tiklash, nafaqat tarixiy merosni saqlash va kelajak avlodga yetkazish, balki o'z navbatida, milliy o'zlikni anglashga, milliy his-tuyg'u va iftixorni rivojlantirishga samarali ta'sir etadi. Jumladan, yoshlar ajdodlar ilmiy merosini qanchalik yaxshi bilsalar, bundan ma'naviy, ayniqsa, ilmiy ozuqa olsalar undan faxrlanadilar va taqlid qiladilar⁶³. Yosh avlodni bunday tarix bilan tanishtirish, ularni kelajak sari muhim qadamlar qo'yishga, shuningdek, o'z ajdodlariga munosib avlod bo'lib, voyaga yetishlarida muhim rol o'ynaydi.

⁶² Fойилов З. Тафаккур самосидаги ёркин юлдуз // Мозийдан садо. – Тошкент: 2001, 4-сон. – 87 б.

⁶³ Ашуров А. Анъанавий никоҳ туйи маросимлари, урф-одатларининг генезисига доир баъзи мулоҳазалар (фарғона водийси узбеклари никоҳ туйлари мисолида) // Ўзбекистон тарихи, - 2003.2-сон.

Bunda, xalqimizning zalvorli tarixiy taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan munosib avlod bo‘lish uchun ularning hayot yo‘llarini o‘rgatish qilgan amallari, ilm-u irfonlaridan baxramand qilish muhim hisoblanadi. Bu jarayonda, nafaqat yoshlarni, umuman aholini madaniy – marifiy hayotida asosiy fenomenlardan biri bo‘lgan ziyorat turizmi imkoniyatlaridan foydalanish muhim hisoblanadi⁶⁴.

Ma’lumki, jahonda turizmning tan olingan uchta xalqaro turizm, milliy turizm, ichki turizm guruhi mavjud bo‘lib, uning tematikasi jigatdan bir qancha turlari tarixiy obidalar va tarixni o‘rganishga qaratilgan turizm, ziyorat turizmi, etnografik turizm, ekologik turizm, ta’lim olish, sport va boshqa dam olish bilan bog‘liq turizmni tashkil etadi. Jahon turizmining bir qismi bo‘lgan ziyorat turizmi xalqaro miqyosda keng foydalanilib kelinadi. Ziyorat turizmi obyektlari deganda, mamlakat ichida odamlar diqqatini tortadigan tarixiy obidala, buyuk shaxslar qadamjolari kabi tarixiy, ma’naviy va ma’rifiy ahamiyatga molik obyektlarni o‘z ichiga birlashtiradi. Ziyorat turizmi respublikamizda qadimdan rivojlanib kelgan. O‘zbekiston hududida mustamlaka va sovet hukmronligi davrida, ziyoratgohlarga tashrif ta’qib ostiga olingan edi, allomalarning qabrlari xarobaga aylantirilgan, sovet yillarida ulardan omborxona, saqlovxona sifatida foydalanilganligini tarixiy jarayonlar ko‘rsatadi⁶⁵. Xususan, Qashqadaryo viloyati hududi tarixiy jarayonlarda jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi bilan alohida mavqega ega. Shu jihatdan, ushbu o‘lkada yetishib chiqqan buyuk allomalar, qadimiy tarix, ilmiy va ma’naviy merosni voha nomi bilan jahonga tanitish, undan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Aytish lozimki, turizm tinchlikni ta’minlashning muhim omili, xalqaro hamkorlikning axloqiy va intellektual asosi sifatida qaraladi. Shu munosabat bilan ziyorat va turizm muhim muammolarning, xususan xalqlarning

⁶⁴ Жабборов И. Узбеклар: турмуш тарзи ва маданияти. – Тошкент: Укитувчи, 2003. – 13 б.

⁶⁵ Имомназаров М, Эшмухаммедова М. Миллий маънавиятимиз асослари. – Тошкент: Маънавият, 2015

madaniyatlararo aloqasi sharoitida jamiyatdagi ijtimoiy keskinlik muammosini hal qilish vositasiga ham aylanishi mumkin. Jahon turizmiga bag'ishlangan Manila konferensiyasida (1980) turizmning xalqaro ijtimoiy keskinlikni yumshatish, butun dunyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlik va o'zaro tushunishni rivojlantirishdagi imkoniyatlari alohida qayd etilganligi bejiz emas⁶⁶.

Ta'kidlash o'rinliki, O'zbekistonda din va ziyorat turizmining shakllanishi va rivojlanishiga asosiy e'tibor mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi. Garchi 1990 yilda muxaddislik ilmining yirik namoyondalaridan biri, islom olamida mashhur bo'lgan Abu Iso Termiziyning 1200 yilligi nishonlangan bo'lsa-da, allomaning asarlari va ma'naviy merosidan xalq bexabar edi. Olimning qabri joylashgan hudud ham yetarlicha obod etilmadi⁶⁷. 1991 yildan keyin, aynan istiqlol yillarida O'zbekistonda vijdon erkinligi, din, diniy tashkilotlar va dindorlarga nisbatan davlat siyosatida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Vijdon erkinligi masalasining davlat bilan diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabati masalasida mustahkam huquqiy negiz yaratildi.

O'zbekiston hukumati musulmonlarning xohish-istaklarini inobatga olib, islom dunyosining muqaddas yodgorliklarini, tarixiy obidalarini diniy tashkilotlar ixtiyoriga o'tkazdi. Yangi masjidlar ochildi, Qur'on karim va hadislar o'zbek tiliga tarjima qilinib, chop etildi. Respublikamizda Ramazon va Qur'on hayitlari bayram ssifatida nishonlanib, dam olish kuni, deb e'lon qilindi⁶⁸.

Mamlakatimizda ziyorat turizmi sohasi mustaqillikning dastlabki kunlaridan iqtisodiy taraqqiyotining ustivor yo'nalishi sifatida e'tirof etilib, unga e'tibor iqtisodiy siyosat darajasida ko'tarilgan. Soha rivoji uchun zaruriy- tashkiliy,

⁶⁶ Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 201 б.

⁶⁷ Ашуров А. Анъанавий никоҳ туйи маросимлари, урф-одатларининг генезига доир баъзи мулоҳазалар (фарғона водийси ўзбеклари никоҳ туйлари мисолида) // Ўзбекистон тарихи, - 2003.2-сон.

⁶⁸ Ашуров А. А. Ўзбек халқининг қадимий ётиқот ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий қутибхонаси нашрети, 2007. – 100 б.

III. BOB. QASHQADARYODA TURIZM RIVOJIDA MUHIM QADAM

3.1 Turizmni rivojlantirishda ziyoratgohlarni ommalashtirishda

YUNESCO bilan hamkorlik

Har qanday sohani rivojlantirishda albatta turli xil tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish bu uni yanada keng rivojlanishiga ulkan hissa qo'shadi. Mana shunday ekan O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng bir qancha xalqaro tashkilotlar bilan faoliyatini yo'lga qo'ya boshladi. Ulardan biri YUNESCO dir. Ushbu tashkilot yordamida Qashqadaryo vohasi hududida joylashgan barcha me'moriy obidalarni o'rnini topishda, qurilgan yillarini aniqlashda yaqindan yordam berib kelmoqda. Bunga misol sifatida vohadagi Oqsaroy memoriy ansambli tarixiy yodgorlik sifatida YUNESCO ro'yxatiga kiritildi.

Hukumat tomonidan tegishli me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va bu boradagi ishlar hozir ham davom etmoqda. Jumladan, 1992 yil 27 iyulda "O'zbekturizm" milliy kompaniyasini tashkil qilish to'g'risida"gi farmonga imzo chekdi va aynan shu yilning 20 oktabrida BMning 424-sonli qarori asosida Dastur qabul qilindi bu milliy turizm tashkil qilish⁶⁹ uchun asos bo'ldi.

1993 yil O'zbekiston 120 dan ortiq davlatni birlashtirgan Jahon turistik tashkilotiga a'zo bo'ldi. 1994 yil BMT va YUNESCO ko'magida Jahon turizm tashkilotining Ipak yo'li, deb nomlangan xalqaro seminar o'tkazildi 1995 yil 2 iyunda O'zbekiston prezidentining O'zbekiston Respublikasini Buyuk Ipak yo'lining shakllanishida ishtirokini faollashtirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish to'g'risida"gi UP – 1162 farmoni imzolandi. Bunday farmon va qonunlar zahirida, hududimizdagi ziyoratgoh va muqaddas qadamjolar bilan mashhur bo'lgan Buxoro, Samarqand, Sahrisabz, Termiz kabi shaharlarni turizm salohiyatini oshirish vazifasi ko'zda tutilgan edi.

⁶⁹ Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужатлари тўплами. – Тошкент: 2017, 31-сон.

Yuqoridagi tadbirlar asosida, mustaqillik yillarida, muqaddas qadamjolaridayotgan avliyo va allomalarning faoliyatiga bag‘ishlab, YUNISCO rahbarligida xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan sanalar tashkil etilishi bilan bir qatorda, ilmiy tadqiqotlar olib borish asosiy vazifa sifatida belgilandi. Buning natijasida, Termizning 2500 yillik, Shahrisabz shahrining 2700 yillik, Qarshining 2700 yillik Yoshi nishonlandi⁷⁰.

Ta’kidlash o‘rinliki, O‘zbekistonning janubiy vohasi hisoblangan Qashqadaryo vohasida joylashgan muqaddas ziyoratgohlar va qadamjolarida dafn etilgan ajdodlarimiz o‘zlarining insonparvarligi, vatanparvarligi, ilm-ma’rifatga bag‘ishlangan umurlari ilmiy merosi bilan jahon ma’naviyatiga munosib hissa qo‘shgan. Ularning ma’naviy merosi, yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda cheksiz imkoniyat yaratadi. Amir Temur va Temuriylar tarixi bilan bog‘liq yodgorliklar hozirgi kunda nafaqat mahalliy, balki xorijiy miqiyosda ham ziyorat maskanlari sifatida foydalanib kelinmoqda. 1996 yilda Amir Temur yubeliyining xalqaro miqiyosda o‘tkazilishi munosabati bilan Shahrisabz shahridagi Temuriylar davri yodgorliklarini ta’mirlash amalga oshirilgan bo‘lsa, 1996 yilda O‘zR FA Arxeologiya instituti va Amir Temur moddiy madaniyat tarixi muzeyi ilmiy xodimlari hamkorligida olib borilgan arxeologik qazishma ishlarida Dor-ul Saodat maqbarasi hududidan hammom supa toshlari topilgan⁷¹.

Mustaqillik yillarida sovet davridan farq qilgan holda xalqning ma’naviyati, o‘zligini qaytishi bilan mazkur ziyoratgohlar nafaqat turizm, balki tarixiy-madaniy meros obyektiga aylantirilib, ularning har biri davlat ro‘yxatiga olindi. Masalan, 1991-1993 yillarda Shahrisabz tumani Mo‘minobod qishlog‘ida Sa’d ibn Abu Vaqqos nomi bilan bog‘liq ramziy qadamjo, 1993 yilda Qumqo‘rg‘on tumanidagi Xoja Samandar Termiziy ziyoratgohi, 1994 yilda Miri Jandi ota majmuasida, 1995-1996 yillarda Shahrisabzdagi Temuriylar davri yodgorliklarida ta’mirlash va ekspeditsiya ishlari olib borildi⁷².

⁷⁰ Мансуров Р. Меъморий ёдгорликларни сақлаш ва таъмирлаш // Мозийдан садо. – Тошкент: 2004, 10 б.

⁷¹ <https://uz.denemetr.com/docs/769/index-82654-1.html>.

⁷² Axmedov B. Amir Temurning davlatni idora qilish siyosati. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – 234 б.

Aytish mumkinki, voha ziyoratgohlarining akariyati tasavvuf vakillari, islom ta'limoti bilan shug'illangan allomalarning qabrlari tashkil etadi. Tasavvuf-falsafiy g'oyalar gumanist harakterga ega bo'lib, komil inson axloqini tarbiyalashda bemisl xizmat ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, dunyo va oxirat, zamon va makon, inson kamoloti mezonlari, shartlari, komil inson haqidagi tasavvurlarimiz, bilimlarimizni kengaytirishga, nafsni tiyish, ma'naviy yuksalishimizda ibrat va da'vat bo'lib xizmat qiladi.

Umuman jamiyatda din, diniy tasavvurlar bilan birga, dunyoviy fikr, dunyoviy turmush tarzi ham yonma-yon yashab kelgan hozirgi O'zbekistonning Qashqadaryo vohasi hududlarida mavjud bo'lgan ziyoratgohlar tarixi insoniyat dunyosining, madaniy hayotining, axloqiy tartib-qoidalarining boyligini va xilmaxilligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu ma'noda, Qashqadaryo vohasida mustaqillik yillarida qayta tiklangan ziyoratgohlar va qadamjolar milliy urfodatlarimiz, qadryatlarimiz, dinimizning bir bo'lagi sifatida alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunday ziyoratgohlarda dafn etilgan shaxslar nomi, faoliyati, ilmu irfoni, qilgan amallari yoshlar, mahalliy aholini tanishtirish milliy o'z-o'zini anglash, milliy g'urur, millatparvarlik, vatanparvarlik, millat taqdiriga nisbatan ma'suliyatni, milliy manfaat ustivorligini milliy manfaat ustivorligini his etish, til tarix, adabiyot, san'at urf-odatlar an'analar, qadryatlarga hurmat va itoatkorlik, o'z kasbining mohir ustasi bo'lish, mamlakat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotida faollik va boshqalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Qashqadaryo viloyatining xalqaro turizm ro'yxatiga qo'shilishi, xalqlar o'tasidagi madaniy-ma'rifiy axloqlarning mustahkamlanishiga, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning yaxshilanishiga, dunyoda tinchlik barqaror bo'lishiga omil bo'ladi⁷³.

⁷³ Жураева С. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларидаги зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг маҳаллий аҳоли ҳаётида тутган урни. – Тошкент: О'zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2021. - 234 б.

“Qashqadaryo viloyatidagi ziyoratgohlar tarixi va ularning mahalliy aholi hayotida tutgan o‘rni” mavzusidagi olib borilgan izlanishlar natijasida ko‘pgina necha yillardan buyon o‘rganilmagan tarixiy ma’lumotlar ochildi⁷⁴.

Dunyo miqiyosida diniy qadryatlar jamiyat a’zolarining tarbiyaviy-axloqiy madaniyatini shakllanishiga hamda madaniy-ma’rifiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Din bilan bog‘liq bo‘lgan ziyoratlar, ularning tarixini o‘rganish xalqning moddiy va ma’naviy boyligini oshirishda hamda ushbu maskanlar insoniyat madaniyatining ajralmas bo‘lagiga aylanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Diniy urf-odatlar va ularning mazmun mohiyatini to‘g‘ri talqin axborotlar asrida turli diniy oqimlarga qarshi ximoya vositasi vazifasini ham bajaradi va alohida talqin etish zaruriyatiniyuzaga keltiradi.

Dunyo mamlakatlarida islomshunoslik, hadishunoslik, kalom ilmi kabi fanlar yo‘nalishida islom dini madaniyati, fani rivojiga xissa qo‘shgan va bugungi kunda ziyorat manziliga aylangan buyuk ulamolarning faoliyati, ilmu-irfonlarini o‘rganish yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, Abdulloh ibn Muborak Marvaziy, Abu Turob Naxshabiy, Abul Mo‘yin Nasafiy kabi ulamolar asarlarining turli xorijiy tillarga tarjima qilinishi umuminsoniy g‘oyalar va ma’naviy qadryatlar tiklashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda⁷⁵.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning Qashqadaryo viloyatida o‘lkamiz tarixi bilan bog‘liq ziyoratgohlar, jahonga mashhur obyektlarni qayta tiklash bo‘yicha qilingan ishlar milliy tarixiy merosimizga bo‘lgan hurmat va ehtiromning namunasidir. Xususan, “Qashqadaryo vohasi 2700 yildan ziyod tarixga, qadimiy madaniy va sivilizatsiya durdonalariga ega Naxshab, Nasaf, Kesh kabi shaharlarda faoliyat ko‘rsatgan, diniy hamda dunyoviy ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Abu Turob Naxshabiy, Najmiddin Nasafiy, Sayyido Nasafiy kabi allomalarni yetishtirgan bebaho zamin hisoblanadi⁷⁶.

⁷⁴Улжаев Ш. Амир Темур ва темурийлар даврида миллий давлатчиликнинг ривожланиши. — Тошкент: Фан, 2005. — 95 б.

⁷⁵<https://uz.denemetr.com/docs/769/index-82654-1.html>.

⁷⁶Axmedov B. Amir Temurning davlatni idora qilish siyosati. — Toshkent: O‘zbekiston, 1996. — 34 б.

Avvalo, Shahrisabz jahonning eng qadimgi shaharlaridan biri ekanligini unutmasligimiz lozim. Olimlarning fikricha, Shahrisabz 2700 yoshda, bu esa, Boqiy shahar "Rimning yoshidir. YUNESKO qaroriga ko'ra aynan shu sana 2002-yilda butun madaniy dunyoda nishonlangan. Eramizdan avvalgi IV asrda Iskandar Zulqarnayn lashkarlari dam olishi uchun Kesh vohasida to'xtagan, Baqtriyaning satrapi bo'lgan Bess Doro III ni o'ldirib, o'zini, osiyo podshohi" deb e'lon qilgan, lekin uning aynan o'zi shu yerda asirga olingan. VII asrda shaharni arablar qamal qilgan, bir asr keyin esa Kesh shahri Muqanna rahbarligi ostida arablarga qarshi kuchli qo'zg'olonning markazi ham bo'ldi

Muommoni turli fanlar kesimida o'rganish dindagi moddiy va ma'naviy qadryatlarning insonparvarlik mohiyatini ochib berish va ulardagi komil inson g'oyasini vatanparvarlik, bag'rikenglik, tolerantlik, ezgulik kabi oliy janob g'oyalar orqali yoshlarni tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Ta'kidlash joizki, har bir xalqning ijtimoiy-ma'daniy hayotida din bilan bog'liq an'ana, urf-odat, marosim va bayramlar kishilar turmush tarzining o'ziga xos hodisasi, sifatida namayon bo'ladi. O'zbek xalqi turmush tarzida ham tarixiy ming yilliklar davomida o'z milliy va diniy urf-odat va rasm rusmlar bilan bog'liq an'analar saqlanib qolgan. Ana shunday qadryatlardan biri muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish odati hisoblanadi.

Ziyorat qilinuvchilardan najot so'rash o'rniga haqlariga duoi hayr qilish, sadaqa-ehson savoblarini ularning ruxlariga hadya etish o'rinlidir. Islom dinida shaxsga ibodat qilish shirk sanaladi. Jumladan, Muhammad (s.a.v) o'zlarining bir hadisi sharifalarida ta'kidlaydilarki, "qabristonlarni ziyorat qilib turingizlar, zero u oxiratni eslatadi". Oxiratni eslash esa, kishini yovuzlikda uzoqlashtirib, ezgulikka yaqinlashtiradi⁷⁷.

Mahalliy aholi hayotida diniy qult sifatida ziyoratning o'rni va ahamiyatini tadqiq etishda dinshunoslik fanining din tarixi, sotsiologiyasi va antropologiyasi

⁷⁷Муминов.А.К. Диншунослик асосларини уқитишва урганишнинг ягона концепсияси.- Тошкент: 1999. 194 б.

kabi fan tadqiqot uullari yordamida dinning madaniy-ma'naviy ahamiyatini tadqiq qilish, diniy e'tiqod va kulturelarning shakllanishi va rivojlanishi, shaxs kulti bilan bog'liq ibodatlar, ziyorat bilan bog'liq xodisalar, marosim va jarayonlarni tushunish mumkin bo'ladi.

Dinning jamiyatning tutgan o'rni va ahamiyatini tushunishning asoslari XX arsning 60-70 yillarda yaratilgan bo'lsada masalaning hududiy va an'anviy xususiyatlarini hisobga olib, mazkur muommo yuzasidan turlicha yondashuvlar qayd etiladi.

Diniy harakatlarning (ziyorat va yoki ibodat) oqilona tomonlari va diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan noaniq jihatlarni namoyon qiladi.

Inson hayotida dinning vazifalarini imperk tatqiq qilishning eng to'liq usuli Ch. Glok va boshqalarning ibodatining beshta asosiy o'lchovini taklif qildi.

Shuningdek, turizm sohasida hamkorlik to'g'risidagi Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi va e'lon qilindi. IHT turizm vazirlarining navbatdagi 5-yig'ilishi 2023 yilda Eronning Ardabil shahrida bo'lib o'tdi. UNESCO "Shahrisabz tarixiy markazi" obyektni tiklash bo'yicha vazifalar ijrosi muddatini yana bir yilga uzaytirdi⁷⁸. Ma'lum qilinishicha, joriy yilning 16-31 iyul kunlari Bosh vazir o'rinbosari, Turizm va sport vaziri Aziz Abduhakimov boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi UNESCO Jahon merosi qo'mitasi (JMQ)ning kengaytirilgan 44-sessiyasi ishida onlayn ishtirok etdi. Tadbir Xitoyning Fuchjou shahrida "gibrid" rejimida bo'lib o'tdi⁷⁹. Islom ensiklopediyasida ziyorat so'ziga quydagicha ta'rif beriladi: ziyorat (arab tilida biror yerga yoki shaxs huzuriga borish) – muqaddas jiylarga, mozor va qabristonlarga borib, muayyan rasrusmlarni bajarib kelishini anglatadi. Ziyorat marosimi odatda qabr tepasida Qur'onning ayrim suralari (ayniqsa Fotixa surasi) ni o'qib marhum haqqiga duo qilish, shuningdek, hayr-exson, sadaqa berish kabilardan iborat. Islom dini

⁷⁸ Ўзбекистонда дунёвий ва диний кадрятлар уйғунлиги. – Тошкент: ТИУ нашриёт бирлашмаси, 2009. – 106 б.

⁷⁹ Жураева С. Ўзбекистоннинг жанубий худудларидаги зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг маҳаллий аҳоли хаётида тутган урни. – Тошкент: O'zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2021. - 200 b.

aqidasiga ko'ra aziz-avliyolarning maqbaralariga ziyorat uchun borilganda, ularning ruhlarida madad so'rash, xojatlar ravo qilinishi, dardlarga shifo berilishi, farzand ato etilishi kabi iltijolar, nojoiz hisoblanadi.

Delegatsiya tomonidan butunjahon madaniy merosi obyektlari hisoblangan "Shahrisabzning tarixiy markazi", "Samarqand – madaniyatlar chorrahasi", "Buxoroning tarixiy markazi" va Xivadagi "Ichan-qal'a", shuningdek O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston ishtirokidagi ko'pmillatli tabiiy meros obyekti bo'lmish "G'arbiy Tyan-Shan" bo'yicha O'zbekiston uchun ijobiy qarorlar qabul qilinishi ta'minlandi⁸⁰. Sessiya doirasidagi barcha qarorlar Jahon merosi qo'mitasiga a'zo davlatlarning O'zbekiston pozitsiyasini to'liq qo'llab-quvvatlashi bilan ovoz berish jarayonisiz qabul qilindi. Tadbirda davomida shuningdek, O'zbekistonning Jahon merosi ro'yxatiga kiritish uchun taklif qilingan obyektlari bo'yicha yangilangan ro'yxat tasdiqlandi. Dastlabki ro'yxat respublika bo'ylab joylashgan 32 ta madaniy, tabiiy va madaniy-tabiiy (aralash) meros obyektlarini o'z ichiga olgan, bu mintaqaning boshqa davlatlariga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichdir.

Rivojlanib borayotgan O'zbekiston davlatini turizmsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ma'lumigizkim, bugungi kunda ushbu so'z, o'zbek tiliga shu darajada o'zlashdiki, bugungi kun taraqqiyotining bir bo'lagiga aylanib qoldi. Bu borada yurtboshimizning ushbu sohaga e'tibor berayotganlarini alohida e'tirof etib o'tish lozim. O'zbekiston boshqa davlatlardan farqli o'laroq, zamonaviy arxitektura namunalari bilangina emas, balki qadimiy qadamjolari bilan ham mashhurdir. Fikrimizning dalili sifatida buyuk bobokalonimiz Amir Temurning, "Bizning qudratimizga shubha qilsang, qurgan binolarimizga boq."-degan gaplarini dalil sifatida keltirishimiz mumkin.

Yurtimiz tarixiy joylarga boy, ammo Sohibqiron Amir Temur tug'ilib-o'sgan Shahrisabz shahri alohida e'tiborga molikdir. Ushbu shahar tarixiga nazar salsak, Shahrisabz -O'zbekistonning qadimiy va go'zal shaharlaridan biri bo'lib,

⁸⁰ <https://uz.denemetr.com/docs/769/index-82654-1.html>.

tarixiy markazi YUNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan, shuningdek bu jannatmakon o'lka O'zbekistobdagi qadimiy shaharlardan biridir. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, shaharga miloddan avvalgi 1-ming yillikning o'rtalarida asos solingan va bu ko'hna diyor milod boshlarida va ilk o'rta asrlarda turli nomlar bilan atalgan. XIII asrdan so'ng Shahrisabz nomi ham urf bo'lgan, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, shahar miloddan avvalgi VIII asrda tashkil etilganligi haqidagi ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin⁸¹.

3.2. Qashqadaryo viloyatida o'tkazilayotgan xalqaro tadbirlarning o'rni va ziyoratgohlarda turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati

Mustaqillik yillarida turizmni rivojlantirish, sayyohlar oqimini ko'paytirish maqsadida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilganligini har bu soha misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Xalqimizning noyob madaniy boyligi va tarixiy merosini targ'ib qilish, xalqaro miqyosda mamlakatimizning ijobiy ko'rinishini shakllantirish vositasi bo'lgan turizm ahamiyati jihatidan Vatanimizni dunyoga tanitishda sport, san'at va madaniyatning boshqa sohalari qatoridan muhim o'rin egallaydi.

Eng muhimi shundaki, yurtimizda ya'ni ko'hna zaminimiz Shahrisabzda ham turizmni rivojlantirish uchun barcha shart- sharoitlar yaratilmoqda va turistalar sonini yanada ko'paytirish maqsadida bir qancha islohotlar ham amalga oshirilmoqda. Bunga biz hozirgi kunda imzolanayotgan diplomatik shartnoma va kelishuvlarni aytishimiz mumkin. O'zbek milliy o'yinlarini xorijiy va mahalliy sayyohlarga namoyish etish maqsadida Kitob tumanida joriy yilning 23-mart kuni uloq-ko'pkari o'yinlari tashkil etildi. Uni 80dan ortiq xorijiy va 100dan ortiq mahalliy sayyohlar zo'r qiziqish bilan kuzatdilar.

Turistlarni keng jalb qilish bo'yicha tadbirlarni jadallashtirish borasida shaharning turistik brendini yaratish va keng miqiyosda targ'ib qilish bo'yicha tanlov e'lon qilindi, chet el ommaviy axborot vositalari va turistik kompaniyalari

⁸¹ Насриддинов К. Карши Калъаси. – Насаф, 2005. 178 б.

uchun infoturlar tashkil etish maqsadida yo'nalish va mehmonxonalar ro'yxati tayyorlanmoqda, videofilmlar yaratish yuzasidan ssenariy va shaharning turistik ekskursiya kartasi ishlab chiqilmoqda, shuningdek turistik ma'lumotnoma ofislari tashkil etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. O'tgan 2019-yilning yakunlariga ko'ra, O'zbekistonga 6,748 million kishi tashrif buyurgan bo'lib, bu 2018-yil statistikasidan 125 foizga shubhasiz ko'pdir. O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlarning umumiy sonidan 6,260 million kishi MDH mamlakatlaridan, 488, 4 ming sayyoh esa olis xorij mamlakatlaridan kelgan.

Shahrisabz bo'ylab sayr qilar ekansiz, eski madrasalarda yoki shunchaki yo'l bo'ylab joylashgan ko'plab esdalik sovg'alar bilan savdo qiluvchi ustaxonalarni ko'rishingiz mumkin. Tarvuz qo'ltiqлагan ko'ngli ochiq chollar, o'yib ishlangan sandiqchalar va rang -barang matolar kabi hunarmandchilik mahsulotlarini taklif etishga ustalar tayyor turishadi. Ular orasida shahar tasviri tushurilgan turli xil shakldagi magnitlar alohida ajralib turadi. Odatdagidek loy va keramikadan yasalganlardan tashqari, yog'och, qog'oz, teri va hatto marmardan yasalganlari ham bor. Bundan tashqari Shahrisabz iqlimi ham turistlar uchun mos keladi negaki, havo unchalik issiq emas va tabiat qo'ynida sayohat qilayotganda iqlim ularga xalaqit bermaydi. Tog' yonbag'irlariga turistlar bilan tashrif buyurganda esa yovvoyi hayvonlarni daryolarda esa bir necha turdagi baliqlarni ko'rishimiz mumkin. Eng qiziqarlisi shundaki, Shahrisabzdan o'tadigan asosiy magistral buyuk italyan sayyohi Makro Poloning marshrutini takrorlaydi.

Istiqlol yillarida respublikada ramazon oylarida va turli tadbirlarda ziyoratgohlarga tashrif buyururish, aziz avliyolarning yotgan joylarini obod qilish va ularning ilm-fandagi faoliyatlari bilan yoshlarni, ommani tanishtirish ishi keng miqiyosda davlat darajasida amalga oshirildi. Qancha qiyinchiliklar va yomon kunlar bo'lmasin xalqimiz ularning barchasini yengib o'tdi va muayyan bir xalq sifatida shakllandi. Mustaqillik yillarida shahar qiyofasi tubdan o'zgartirildi va qayta qurildi. Shahrisabz ahlining Temuriylar davri ulkan madaniy va ma'naviy merosi, noyob tarixiy yodgorliklarini asrab-avaylash, yosh avlodni buyuk

ajdodlarimizning munosib vorislari qilib tarbiyalash va ularni ozod mamlakatimiz buyuk istiqbolini yaratishga qodir kishilar qilib yetkazish ishiga qo'shgan alohida xizmatlari e'tiborga olinib hamda Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan Shahrisabz, Amir Temur ordeni" bilan mukofotlandi⁸². Bu xalqimiz uchun munosib taqdirlash boldi desak ham hech mubolag'a bo'lmaydi.

Mustaqillik yillarida turizmni rivojlantirish, sayyohlar oqimini ko'paytirish maqsadida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilganligini har bu soha misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Xalqimizning noyob madaniy boyligi va tarixiy merosini targ'ib qilish, xalqaro miqyosda mamlakatimizning ijobiy ko'rinishini shakllantirish vositasi bo'lgan turizm ahamiyati jihatidan Vatanimizni dunyoga tanitishda sport, san'at va madaniyatning boshqa sohalari qatoridan muhim o'rin egallaydi.

Hujjatda qayd etilishicha, O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahri festivallari shahri sifatida e'tirof etilga. O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi, Qashqadaryo viloyati hokimligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi Shahrisabz shahrida yil davomida Amir Temur tavallud kuni, "Ko'pkari" milliy o'yini, folklor guruhlar va hunarmandlar festivali kabi turli madaniy-ko'ngilochar tadbirlarni aniq reja va tasdiqlangan taqvim asosida muntazam o'tkazib borish orqali Shahrisabz shahrini festivallar shahriga aylantirish choralarini ko'radi⁸³. O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi mazkur madaniy-ko'ngilochar tadbirlarini respublikasiga tashrif buyuruvchi turistlar o'rtasida keng targ'ib etish hamda tadbirlar doirasida Shahrisabz shahriga turistlarni keng jalb etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni keng jalb etish yuzasidan amalga oshiradi.

Bunday qarashlar nafaqat aholining din bilan bog'liq hayotini o'rganish, balki shaxsning "marosimlarda ishtirok etish", "jamiyat hayotida ishtirok etish" va "jamiyat qadryatlariga sodiqlik" kabi ko'rsatkichlarni ham tadqiq qilishga yordam

⁸² Ziyonet.uz: O'zbekistondagi jamoat axborat ta'lim tarmog'i

⁸³ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'saga'sida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. – 312 b.

beradi. Shuningdek, tadqiqotchi olim D. Batson tomonidan taklif etilgan diniylikni o'rganishning "kvest" shkalasi uchta o'qni ya'ni "din maqsad sifatida", "din vosita sifatida" va "din izlanish sifatida" o'rganishni belgilaydi⁸⁴.

Diniy va ijtimoiy o'zgarishlarning bir-biriga munosabatining tadqiq qilgan nemis sotsiologi, faylasuf, tarixchi olim M. Viber (1864-1920) ning fikricha dinning ijtimoiy ro'li jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatiga alohida e'tibor berib, din har doim ham konservativ kuch bo'lavermasligini, aksincha, diniy ildizlarga ega bo'lgan ijtimoiy harakatlar ko'pincha jamiyatda sezilarli o'zgarishlarga olib kelishini, zamonaviy jamiyatda kundalik hayot qoidalari an'anaviy bo'lib saqlanib qolishini qayt etadi⁸⁵.

Sotsiolog K. River ham o'z tadqiqotlarida buni tasdiqlab, dunyoviy jamiyatda mavjud bo'lgan tartiblar yo'qolib ketmasligi aksincha u yangi formada ishonch bilan chegaralanmagan holatda bo'lishini ta'kidlaydi⁸⁶.

Bundan shundan xulosaga kelish mumkinki, har bir jamiyatning o'ziga xos qonun-qoidalari, yashash sharoiti diniy qarashlarning saqlab qolinishi insonlar hayotida diniy ibodatlar, jumlagan, ziyoratlarga munosabatni ham hududiy jihatdan turli o'zgarishlarga uchrashini kuzatishimish mumkin. Mazku konsepsiyalarning natijalarini O'zbekistondagi ziyoratgohlarning mahalliy aholi hayotida ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyyati yuzasidan ham o'rganishimiz mumkin ekanligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, dunyo dinlari-xristianlik, islom va buddaviylikda diniy mabudlarga ibodat va ziyoratgohlarga tashrif buyurish diniy amaliyot hisoblanadi. Islom dinida "ziyosat" istilohi musulmonlarning "muqaddas" joylarga borishini anglatadi. Ba'zi tillarda "haj" va "ziyosat" bir xil ma'noni anglatadi. Islom dinida esa, haj ziyorati masalasida qat'iy qoidalar o'rnatilgan bo'lib, Qur'oni karimda haj ziyoratini amalga oshirish islom ruknlarida biri ekanligi ta'kidlanadi⁸⁷. Musulmon mamlaktlaridagi muqaddas joylarning aksariyati Ali va Foptima (r.a), Payg'ambar

⁸⁴ Ўзбекистонда дунёвий ва диний кадрлар уйғунлиги. – Тошкент: ТИУ нашриёт бирлашмаси, 2009. 222 б..

⁸⁵ Муминов.А.К. Диншунослик асосларини уқитишва урганишнинг ягона концепсияси.- Тошкент: 1999. 50 б.

⁸⁶ Болтабоев С. Чоризм ҳукмдорлиги даврида ислом. Ўқув-услубий қўлланма. – Наманган, 2005. 93 б.

⁸⁷ Султонов У. Тошкент қадамжолари ва мазорлари // Имом ал-Бухорий сабоклари. – 2007, 2-сон. 78 б.

(s.a.v) ning boshqa avlodlari xo‘ja va sayyidlar hamda ularning avlodlariga tegishli qabrlarda iborat⁸⁸. Markaziy Osiyo aholisi hayotida ziyoratgohlar tarixiy shaxslar bilan bog‘liq turli mozarlar, ayrim tabiat hodisalari va predmetlari bilan bog‘liq joylarni tashkil etadi.

Turizm jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va istiqbolli tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda turizmni rivojlantirishga e‘tibor qaratilayotganligi bois iqtisodiyoti yuksalib bormoqda. Mamnuniyat bilan ta‘kidlash kerakki, muhtaram Prezidentimiz tomonidan mana yetti yildirki, mamlakatimizda sayyohlikka rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilayotganligi bois ozod yurtimiz fuqarolari uchun dunyo mamlakatlari eshigi ochildi. Ayni paytda Samarqand shahrida o‘tkazilayotgan Butunjahon turizm tashkiloti (YuNVTTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasi O‘zbekistonda ham mamlakatni modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar doirasida turizm tarmog‘ini rivojlantirishga ustuvor e‘tibor qaratilayotganligining yaqqol dalilidir. Davlatimiz rahbari Global sayyohlik tashkilotining 140 dan ziyod mamlakat vakillari ishtirok etayotgan mazkur anjumanda so‘zga chiqib, turizmni rivojlantirish borasida bir qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Yuqori tezlikda harakatlanishga mo‘ljallangan yangi avtomobil va temir yo‘llar qurildi, aviatsion parki 2 barobar kengaytiriladi, aviaqatnovlar soni to‘rt barobar oshirildi. Katta shahar va sayyohlar ko‘p boradigan manzillarda 30 ta yirik turizm klasterlari tashkil etiladi⁸⁹.

“Ko‘hna tarix durdonalari” milliy dasturi doirasida turistlarni o‘ziga jalb qiladigan madaniy meros ob‘ektlari soni 800 tadan 2,5 mingga yetkaziladi, 745 ta madaniy meros ob‘ekti restavratsiya qilinadi, 20 ta me‘moriy yodgorlikda “ochiq osmon ostidagi muzey”lar tashkil etiladi. Ayniqsa, ziyorat turizmiga alohida e‘tibor qaratiladi. Davlatimiz rahbari BMT doirasida Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqishni taklif etdi. Iqlim o‘zgarishlari tobora kuchayib

⁸⁸ Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужатлари туплами. – Тошкент: 2017,31-сон.

⁸⁹ Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. – Тошкент: 2017 йил 3-сон

borayotgan davrda “yashil” turizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro Harakatlar dasturini qabul qilish har qachongidan ham dolzarbligi ko'rsatib o'tildi. O'zbekiston Prezidenti 2025 yilni “Butunjahon inklyuziv turizm yili” deb e'lon qilish va maxsus deklaratsiya qabul qilish tashabbusini ilgari surdi⁹⁰.

Keyingi yetti yil mobaynida vohamizda turizmni rivojlantirish, sayyohlar oqimini ko'paytirish maqsadida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Turli xalqlarning urf-odatleri, ma'naviy qadriyatlari, madaniy do'stlik aloqalarini bir-biriga bog'lashda xizmatleri beqiyos bo'lgan turizmni haqli ravishda har bir mamlakatning milliy boyligi-qadriyatlar ko'prigi deya olamiz.

Qadimiy shaharlarimizning necha ming yillik tarixi, moziy qatidagi durdonalar, xalqimizning ma'naviy-madaniy qadriyatlari tiklash borasidagi keng ko'lamli bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilganligi turizm imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Viloyatimizdagi har biri o'z tarixiga ega bo'lgan qadimiy yodgorliklar hamda sohibqiron Amir Temur davridan bizgacha saqlanib kelgan bebaho madaniy meros bilan tanishish, vohaning betakror tabiatidan bahramand bo'lish uchun tashrif buyuruvchilar soni yildan-yilga ko'paymoqda. Bugungi kunda zamonaviy mehmonxonalar, dam olish maskanlari qurilib, servis xizmati kun sayin yaxshilanib borayotir. O'ndan ortiq turistik marshrutlar viloyatimizga tashrif buyurayotgan sayyohlar xizmatida. Yaponiya, Koreya, Rossiya, Germaniya, AQSh, Hindiston davlatlaridan tashrif buyurayotgan sayyohlar Qarshi shahridagi Odina, Ko'kgumbaz tarixiy obidalari, Qashqadaryo ko'prigi, Yerqo'rg'on, Shahrisabz shahridagi “Oqsaroy” memorial kompleksi, Kitob tumanidagi “Hazrati Bashir”, Qamashi tumanidagi “Langar ota”, Yakkabog' tumanidagi Sohibqiron bobomiz tavallud topgan Xo'jailg'or qishlog'i, Tezob ota kabi ziyoratgoh va muqaddas qadamjolar bilan bir qatorda mustaqillik yillarida yaratilgan bunyodkorlik ishlarini hayrat bilan tomosha qilishayotir.

⁹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2018-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар туғрисида” ПК-3217-сонли қарори. 2016 йил 16 август. www.lex.uz.

Turizm mamlakatimizning turli sohalardagi imkoniyatlarini dunyoga namoyon etishning o'ziga xos vositasi ekanligini dildan his etgan holda, undan to'laqonli foydalanish uchun bor bilim va tajribamizni ishga solishimiz talab etilmoqda. Partiyamiz deputatlari va faollari vohamizdagi qadimiy yodgorliklar, qutlug' qadamjolarini obodonlashtirish, betakror jihatlarini ko'rsatish, tarixiy obidalar va ziyoratgohlar haqida risolalar, bukletlar yaratishda taniqli ijodkorlar va tarixchi olimlar bilan hamkorlikda ish olib borishmoqda. Viloyatda turizmni yanada rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va yo'nalishlarini kengaytirish, muvofiq mehmonxonalar soni, sayohatchilarga ko'rsatilayotgan servis xizmati hajmi va sifatini oshirishga ko'maklashish maqsadida viloyat kengashining dasturini ishlab chiqish bo'yicha amaliy ishlarni boshlab yubordik⁹¹.

Turizm ahamiyati jihatidan vatanimizni dunyoga tanitishda sport, san'at va madaniyatning boshqa sohalari qatoridan muhim o'rin egallashini unutmashimiz darkor. Yangi O'zbekistonda turizm sohasidagi islohotlar samaradorligini oshirish, qulay iqtisodiy sharoit va omillarni yaratish, uning iqtisodiyotdagi o'rni va ulushini kengaytirish, xizmatlar sifatini yuksaltirish hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Shahrisabz shahri Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining (IHT) 2024 yilgi turistik poytaxti etib tanlandi. Ushbu qaror 13 dekabr kuni onlayn rejimda bo'lib o'tgan IHT davlatlari turizm vazirlarining to'rtinchi yig'ilishi yakunlari bo'yicha qabul qilindi. Yig'ilishni O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari, Turizm va madaniy meros vaziri Aziz Abduhakimov ochib berdi. Abduhakimov turizm madaniy an'analarni qo'shish orqali mintaqalarini birlashtiruvchi eng mustahkam ko'pri bo'lib xizmat qilishini ta'kidladi. O'z navbatida, IHT Bosh kotibi Xusrav Noziri turizm sohasi tashkilotining 2025 yilga mo'ljallangan rejalariga muvofiq rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari qatoriga kiritilganini

⁹¹ Ҳожи Абдуллоҳ Абдурроззик. Зиёрат обидалари. Муъминлар мулоқоти ва дустлик одоблари. – Тошкент: Мовороуннахр, 2005

ta'kidladi. Uning so'zlariga ko'ra, IHT mintaqasida YUNESKO ro'yxatidan o'tgan 74 ta Jahon merosi mavjud⁹².

⁹² Урта аср Шарк алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожигаги роли ва аҳамияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, Qashqadaryo hududidagi ziyoratgohlar tarixi va ularning mahalliy aholi hayotida tutgan o'zni mavzusini o'rganish jarayonida butun voqea bo'ylab joylashgan muqaddas qadamjolar, mozar va qabristonlar, buyuk allomalarning qabrlarining aniq manzillari o'rganildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mahalliy aholi ma'naviy hayotida ziyoratgohlar ahamiyati va diniy madaniy tarixining mazmunini ochib berish, va shu bilan birgalikda dinning jamiyatdagi ahamiyati bu – ibodat bilan bog'liq bo'lib, insonning o'ziga xos ruhiy holati, u jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar bilan bevosita bog'liqligi aniqlandi. Olimlarning ko'p yillik izlanishlari natijasida Markaziy Osiyo ziyoratgohlari bir qancha turli xil turlarga bo'lindi va shu asosida Qashqadaryo viloyati ziyoratgohlari islom ulamolari, allomalar, sahobalar, payg'ambarlar, tarixiy shaxslar nomi bilan ataluvchi, ramziy qabrlar, noma'lum bo'lgan, rivoyat, afsona nomi bilan atalgan ziyoratgohlar, davolavchi, tabiat hodisalari nomi bilan bog'liq muqaddas qadamjolar hisoblanadi.

Mavzuning manbashunosligiga doir O'zMA hujjatlari (hisobot, qaror, buyruqlarni, joy nomi arxitekturasini bilan bog'liq hisobotlar) va qo'lyozma manbalar tasniflanib, O'zbekistonning janubiy viloyati hisoblangan Qashqadaryo ziyoratgohlari to'g'risidagi ma'lumotlar tarixchi sharqshunos, geograf olimlarning etnografik, tarixiy asarlar va turli ko'rinishdagi manbalarida (arxiv hujjatlarini, estaliklar, gazeta maqolalari, hisobotlar, shaxsiy xotiralar, suhbatlar) bir qancha ko'plab ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bundan tashqari mavzuning tarixshunosligiga oid rus, xorij, o'zbek tilida yozilgan 20 dan ortiq ilmiy maqolalar, 100 ga yaqin risola, tarixga oid 300 dan ortiq adabiyotlar taxlil qilinib, undagi Qashqadaryo ziyoratgohlariga doir fikrlar yoritildi⁹³. Ziyoratgohlarning aynan janubiy hududlaridagi holati yuzasidan umumiy bir yorqin xulosalar berilmaganligi aniqlandi.

⁹³ Жураева С. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларидаги зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг маҳаллий аҳоли ҳаётида тутган урни. – Тошкент: О'zbekiston savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2021. - 262 b.

Qashqadaryo vohasida joylashgan o'rta asrlar davriga tegishli ziyoratgohlarning paydo bo'lishi aynan Amir Temur va temuriylar davri bilan bog'liq bo'lib, sohibqironning o'zi avliyo va pir ustozlarga nisbatan xurmat maqsadida ularning qabrlarini sag'ana, maqbaraga aylantirgan. Mahalliy aholi tomonidan XVI-XIX asrlarda yashagan tarixiy shaxslar, islom olamida shayx, xo'ja, said maqomi bilan avliyo darajasiga ko'tarilgan shaxslar nomi bilan bog'liq qabrlarni ziyorat maskani sifatida ulug'landi. Qabrlar orasida afsona, miflar bilan bog'liq ramziy qabrlar ham aniqlanib, ularda bu tarixiy shaxsning shu yerda tug'ilganligi yoki aynan shu yerda bo'lganligini izohlovchi bir qancha faktlar ko'rsatib o'tildi.

Qashqadaryo vohasi ziyoratgohlari arxitektura-me'moriy uslublari islom madaniyatining namunalarini birlashtirgan yodgorliklar ekanligi, ziyoratgohlarida qurilgan maqbaralar tuzilishi va ko'rinishi temuriylar davri me'morchilik uslubi an'analari takrorlaydi. Ziyoratgohlar ko'rinishining o'ziga xos jihati u yerda maqbara sag'analar bilan birga, albatta ziyoratgohlar yonida ibodat uchun masjid ham bunyod etilgan. Bu bevosita o'rta asrlar davri qurilishi va bezak ishlarining islom an'analari bilan uyg'unligini ko'rsatadi.

Voha ziyoratgohlarining akariyati tabiat quynida joylashgan va tabiat hodisalari (tog', daraxt, soy, suv) nomi bilan bog'liq o'ziga xos shifobaxshlik xususiyati ko'zga tashlanadi. Avliyolar va buloq nomlari bilan bog'liq qadamjolar ma'lum kasalliklarga shifo topishi, yoki orzu umidlarini amalga oshirishlarida tashrifi ziyoratgohni aholi orasida tizimlashganini ko'rsatadi. Boshqa tomondan, ziyoratgoh joylashgan hududlarning tabiat bilan uyg'unligi aynan voha ekoturizmni rivojlantirish uchun asos bo'ladi. Buning uchun nafaqat tabiat balki u bilan bog'liq qadamjolarining ham mavjudligi hududiy turistik manzillarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ma'naviy-axloqiy hayotimizda diniy ilmlarning o'rni katta bo'lib, u umuminsoniy axloqiy qadryatlarni singdirishga xizmat qiladi. Jahon sivilizatsiyasi tarixida alohida nufuzga ega bo'lgan O'zbekiston hududdi islom olamida mashhur

bo'lgan Abu Iso Termiziy, Hakim Termiziy, Abul Mo'yin Nasafiy, Abdulloh ibn Muborak Marvaziy kabi buyuk siymolari yaratgan buyuk merosni yoshlar, mahalliy aholiga tanishtirish milliy o'z-o'zini anglash, til, milliy tarix, adabiyot, san'at, urf-odatlar, an'analar, qadryatlar, ma'naviy hayotida faollik va boshqalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Voha ziyorat turizmini rivojlantirish uchun maqsadli xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, ziyoratgohlarni xalqaro miqiyosda ziyorat turistik obyektlari ro'yxatiga kiritish, chet el aeroportlaridan to'g'ridan-to'g'ri reyslar amalga oshirish, ularning kelish imkoniyatlarini ko'rib chiqish zarur bo'ladi. Bu hududdagi turistik infrastruktura rivojlanishiga, aholining turmush darajasi oshirishga va barcha sohalarni teng ravishda rivojlanishiga o'z xissasini qo'shadi.

Yurtimizda mavjud ziyoratgoh, maqbara, qadamjolar xalqimizning diniy va milliy qadryatlardan biri sanaladi. Munosib shaxslarning merosini va tarixini o'rganish, pirovard natijada ular dafn etilgan qabristonlarni obod qilish, diniy-diyonatli insonlarning hayot tajribasini ommalashtirish, ularning dunyoviy va diniy sohada amalga oshirgan ishlari biz yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadlariga xizmat qiladi. Zero, bunday shaxslarning hayot yo'li, so'zlari va ezgu amallari xalqimizga ibrat va saboq maktabi bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Мирзиёев Ш.М. Еркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо етамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг кушма мажлисидаги нутк. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.
2. Мирзиёев Ш.М. Оккунгил, орийтли ва меҳнаткаш инсонлар юрти (Кашкадарё вилояти) // Буюк келажагимизни март ва олийжаноб халкимиз билан бирга курамиз. – Тошкент: Ўзбекистон. 2017.
3. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби мукаддасдир. 3-жилд. – Тошкент: Узбекистон, 1996.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘saga’sida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997

II. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 февралдаги № ПК-2774 “Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот марказини ташкил этиш чора-тадбирлари туғрисида” ги қарори. <https://lex.uz/doc/3113645>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2018-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш буйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар туғрисида” ПК-3217-сонли қарори. 2016 йил 16 август. www.lex.uz.
3. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужатлари туплами. – Тошкент: 2017,31-сон.
4. Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. – Тошкент: 2017 йил 3-сон

III.Manbalar

1. Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент: Фан, 2018
2. Клавихо Р.Г. Самаркандга-Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 193 б.

3. Хофуз Таниш Бухорий. Абдулланом. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1969
4. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989.

IV. Arxiv materiallar

1. УзР Маданият вазирлиги Маданий мерос департаменти архиви 23-вароғ
2. УзМА, М-7 Ўзбекистон Республикаси маданият вазирлиги;
3. УзМА, М-38 Ўзбекистон Республикаси маданият вазирлиги;

V. Ilmiy adabiyotlar

1. Абдуллаев Ҳ. Насаб ва кеш алломалари // Имом ал-Бухорий сабоклари. – Тошкент: 4-сон, 2006
2. Абриев Р. Ўзбекистонда тоат ибодат билан боғлиқ архитектура ёдгорликлари хусусида // Имом ал-Бухорий сабоклари. – Тошкент: 2005, 4-сон.
3. Абриев Х. Амир Темур ва темурийлар даври меъморий обидалари бунёд этилиши ҳамда таъмирланиши тарихидан// Имом ал-Бухорий сабоклари. 2008. 1-сон.
4. Алимов Усмонхон. Ўтганларни ёд этиш инсоний бурч // Ислом нури. 2013 йил 9 май.
5. Ахмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: 2001.
6. Ашуров А. Анъанавий никоҳ туйи маросимлари, урф-одатларининг генезисига доир баъзи мулоҳазалар (фарғона водийси узбеклари никоҳ туйлари мисолида) // Ўзбекистон тарихи, - 2003.2-сон.
7. Ашуров А. А. Узбек халқининг қадимий ётиқот ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий қутубхонаси нашри, 2007.
8. Сағдуллаев А.С. Қадимги Кеш ва Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 11 б.

9. Саидкосимов С. Амир Темур жаҳон тарихида. – Тошкент: Шарк, 2006. – 113 б.
10. Хушваков Н. Кашкадарё тарихига саёҳат. – Тошкент: Илм-зиё-заковат, 2020. – 3 б.
11. Равшанов П. Кашкадарё тарихи. – Тошкент: Фан, 1995. – 601 б.
12. Раимкулов А. Кашкадарё воҳасининг урта аср шаҳарлари. – Карши: Насаф, 2018. – 47-49 б.
13. Жабборов И. Узбеклар: турмуш тарзи ва маданияти. – Тошкент: Укитувчи, 2003
14. Жабборов И.М. Узбек халки этнографияси. . – Тошкент: Укитувчи, 1994
15. Жабборов И.М. Худолар, авлиёлар ва одамлар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985
16. Зоҳидов М.С, Собиржонов А.С. Карши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978
17. Зоҳидов П.Ш. Меъмор олами. – Тошкент: Комуслар Бош таҳририяти, 1996 – Б. 89
18. Имом Бухорий сабоклари. – 2006. 4-сон.
19. Имомназаров М, Эшмухаммедова М. Миллий маънавиятимиз асослари. – Тошкент: Маънавият, 2015
20. Бозоров О. Умуминсоний кадрятлар ва исломий ахлоқ // Истиклол йиллари: миллий-диний кадрятлар халқка кайтиши (Самарканд). Узб. Респ. Мустиқиллигининг ун йиллигига бағишланган илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент: Имом Бухорий халқаро жамғармаси, 2001
21. Болтабоев С. Чоризм ҳукмдорлиги даврида ислом. Укув-услубий кулланма. – Наманган, 2005
22. Буриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларда Марказий Осиё. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
23. Насриддинов К. Карши Калъаси. – Насаф, 2005.

24. Axmedov B. Amir Temurning davlatni idora qilish siyosati. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996.

25. Жураева С. Ўзбекистоннинг жанубий худудларидаги зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг маҳаллий аҳоли ҳаётида тўтган урни. – Тошкент: O‘zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2021.

VII. Internet materiallari

1. <https://lex.uz>: O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi
2. Ziyonet.uz: O‘zbekistondagi jamoat axborat ta’lim tarmog‘i
3. <https://uz.denemetr.com/docs/769/index-82654-1.html>.
4. <https://karakalpakstan.travel/cultural-heritage.uz/>
5. www.religions.uz
6. <http://qadamjo.uz>.
7. www.uzbekiston.travel/ru/c/ziyosat/
8. <https://qashqadaryo.uz/uz>
9. <http://qadriyat.uz>.
10. <https://meros.uz>

Raqamli tarix

